

JAMOAT ASOSLARI



Jamoatdagi Yetakchilikni Tushunish

TO'PLAM MUHARRIRI: JONATAN LIMAN

MUALLIF: MARK DEVER



Mark Edvard Dever va 9ta Belgi mualliflik huquqi © 2016
Barcha huquqlar himoyalangan.
Amerika Qo'shma Shtatlarida chop etilgan

978-1-4336-8892-8

Nashvill, Tennessidagi B&H Publishing Group nashriyoti

Dyueyning o'nli tasnifi: 262
Mavzu sarlavhasi: YETAKCHILIK \ JAMOAT
BOSHQARUVI \ JAMOAT ISHI

Kitob muqovasi | Formatlash
Wirley Corrêa

Barcha oyatlar Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti
tomonidan 2016-yilda chop etilgan Muqaddas Kitobdan
olingan, mualliflik huquqi © 2016

Barcha huquqlar dunyo bo'ylab himoyalangan.

1 2 3 4 5 6 7 8 • 20 19 18 17 16

JAMOAT ASOSLARI



Jamoatdagi Yetakchilikni Tushunish

TO'PLAM MUHARRIRI: JONATAN LIMAN

MUALLIF: MARK DEVER

MUNDARIJA

Jamoat Asoslari To'plamiga Kirish.....	7
Kirish	11
1-BOB — Diakonlar Kimlar?	21
2-BOB — Diakonlar Kimlar?	33
3-BOB — Oqsoqollar Kimlar?	45
4-BOB — Oqsoqollar Nima Ish Qilishadi?	55
5-BOB — Oqsoqollarning Jamoat Shtati Xizmatchilari, Diakonlar va “Cho'pon” Bilan O'zaro Aloqasi.....	71
6-BOB — Oqsoqollarning Jamoatga Aloqasi	81
7-BOB — Jamoat A'zolari Kimlar?	95
Xulosa: Xudo Ulug'vorligining Namoyon Bo'lishi ...	113
Ilova: Diakonning Vazifalari	125
Izohlar.....	140

JAMOAT ASOSLARI TO'PLAMIGA KIRISH

Masihiy hayot bu jamoatlashgan hayotdir. Ushbu asosiy Kalomiy iddao Jamoat Asoslari Toplamidagi barcha kitoblarda ilgari surilgan.

Ushbu iddao o'z navbatida har bir muallif o'z mavzusiga qanday yondashishiga ta'sir qiladi. Misol uchun, *Qutlug' Kechlikni Tushunish*da Rabbimiz Kechligi siz va Iso o'rtasidagi shaxsiy va sirli amal emasligi ta'kidlanadi. Bu oilaviy stol atrofida siz Masih va masihiylar bilan muloqotda bo'ladigan kechlikdir. *Buyuk Topshiriqni Tushunish*da Buyuk Topshiriq Masihning shohidi sifatida bir o'zi boshqa xalqlarga borish litsenziyasi emasligi ta'kidlanadi. Bu butun jamoatga berilgan va butun jamoat bajarishi lozim bo'lgan vazifadir. *Jamoat Hokimiyatini Tushunish*da jamoat hokimiyatiga nafaqat yo'l boshchilar, balki, butun jamoat mas'ul ekanligi ta'kidlanadi. Har bir a'zoning qiladigan ishi bor, shu jumladan, sizning ham.

To'plamdagi har bir kitob jamoatning o'rtamiyona a'zosiga moslab yozilgan, bu juda muhim jihatdir. Agar masihiy hayot – jamoatlashgan hayot bo'lsa, unda siz, cho'ndirilgan imonli va jamoat a'zosi, bu asosiy mavzularni tushunishga mas'ulsiz. Iso sizga O'z xushxabarini yoyish va himoya qilish vazifasini topshirganiga o'xshab, U sizga O'z xushxabari xalqi, ya'ni jamoatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish vazifasini ham yuklagan. Buni qanday amalga oshirish bu kitoblarda tushuntirilgan.

Siz Masihning xushxabarchilik xizmati korporat-siyasida aksioner kabisiz. Yaxshi aksionerlar nima qilishadi? Ular o'z kompaniyalarini, bozorni va raqobatni o'rganib chiqishadi. Ular o'z sarmoyalaridan iloji boricha ko'proq foyda olishni xohlashadi. Siz, masihiy odam, butun hayotingizni injil xushxabariga sarmoya sifatida kiritdingiz. Bu to'plamning maqsadi Xudoning ulug'vor xushxabari yo'lida mahalliy jamoatingiz sog'lomligini va Shohlikdagi samaradorligini oshirishda sizga yordam berishdir.

Ishni boshlashga tayyormisiz?

Jonatan Liman
To'plam Muharriri

JAMOAT AOSOSLARI TO'PLAMIDAGI KITOBLAR

Buyuk Topshiriqni Tushunish,

Mark Dever

Cho'mdirilishni Tushunish,

Bobby Jamieson

Qutlug' Kechlikni Tushunish,

Bobby Jamieson

Jamoat Hoqimiyatini Tushunish,

Jonatan Liman

Jamoatdagi Intizomni Tushunish,

Jonatan Liman

Jamoatdagi Yetakchilikni Tushunish,

Mark Dever

USHBU MUALLIFLARNING
USHBU MAVZULARGA DOIR
QUYIDAGI ASARLARIGA
MUROJAAT ETISHINGIZ
MUMKIN:

*Jamoatiningiz A'zolarini Bo'shatmang:
Kongregatsionalizm Haqida,
Jonatan Liman*

*Omma Oldiga Chiqish:
Nima Sababdan Jamoatga A'zo Bo'lish Uchun
Cho'mdirilish Talab Etiladi,
Bobby Jamieson*

*Baptist Asoslari:
Anti-Institutsional Asr uchun Jamoat Boshqaruvi,
Mark Dever va Jonatan Liman, muharrirlar*

*Va'z qil:
Teologiyaning Amaliyotga Mos Kelishi,
Mark Dever va Greg Gilbert*

*Jamoat:
Xushxabarning Namoyon Bo'lishi,
Mark Dever*

KIRISH

Mahalliy jamoatda yo'lboshchilik masalasi o'ta muhim mavzudir.

Hech bo'lmaganda, Masihning jamoatga nisbatan sevgisi haqida o'ylang. U O'zini jamoat uchun qurbon qildi. U jamoatni O'zining tanasi sifatida ko'radi. U O'zining Kalomi, Ruhi va xizmatlari orqali u haqda g'amxo'rlik qilishni va uni ta'minlashni davom ettiradi. U oxiratda jamoatni O'zining nurafshon kelinini sifatida namoyon qilishga va'da bergan. Agar bularning barchasi haqiqat bo'lsa, jamoatga yo'lboshchilik qiladiganlar oliy va muqaddas mas'uliyatga egalar. Kelinning yordamchilari uni kuyov oldiga yo'lak bo'ylab yurib borishiga qanday to'la g'amxo'rlik bilan tayyorgarlik ko'rishlari haqida bir o'ylab ko'ring.

Masih O'zining yo'lboshchilaridan kelinini tayyorlashda bundan kam bo'lmagan g'amxo'rlikni

ko'rsatishlarini xohlaydi. Shu sababdan, Xudoning Kalomi jamoat yo'l boshchiligi haqida nima deyishini o'rganish, fikr yuritish va ibodat qilishga vaqt sarflasa arziydi.

KEYINGI KATTA NARSA

Albatta, jamoat yo'l boshchiligi nizoli masala bo'lishi mumkin. Bitta eski jamoatda yosh cho'pon yo'l boshchilik tuzilishini (strukturasi) o'zgartirishni tavsiya qilganda qanday javoblar bo'lishini yaxshi tasavvur qilish mumkin. Bir necha yil oldin, Birinchi Baptist Hyuston Jamoati istefodagi cho'poni Jon Bisagnoning ta'kidlashicha, jamoatni boshqarish mavzusi hozirgi kunda Baptist jamoatlaridagi eng nizoli mavzulardan biridir.

Muammoning bir qismi shundan iboratki, har zamonda cho'ponlarga atalgan konferensiyalar hamda nashriyotlar *keyingi katta narsa* bilan hammani jumbushga keltirishadi va odatda korporativ (ish) dunyodan kirib keladi. Quyida 1950-yillarda xizmat qilgan bir cho'pon o'zining yo'l boshchilik strukturasi tasvirlab beradi. U jamoatni tasvirlayaptimi yoki banknimi?

Druid Hills Jamoatining cho‘poni bo‘lganida amalga oshirgan birinchi ishim – Cho‘pon Mahkamasiga asos solish bo‘lgan. U jamoat hayotiga dahl qiladigan barcha bo‘limlarning boshliqlaridan – Xizmatchilar (diakonlar) kengashining Raisi va Rais O‘rinbosari, Moliya Qo‘mitasi Raisi va Rais O‘rinbosari, Ishonchli Vakillar Raisi, Shveysarlar (keluvchilarni kutib olib o‘rindiqlarga joylashtiruvchilar) Kengashi Raisi, Kotib, G‘aznachi, Ijtimoiy yordam Qo‘mitasi Raisi, Yakshanba Maktabi Direktori, O‘qitish Uyushmasi Direktori, Ayollar Missionerlik Jamiyati Prezidenti, Birodarchilik Prezidenti, Musiqa Xizmatchisi, Musiqa Qo‘mitasi Raisi, Mehmonlar Kitobi Qo‘mitasi Raisi, Yoshlar Kengashi Raisi, Kutubxonachi va Jamoat Xodimlaridan tashkil topgan.¹

Biz o‘zimizning korporativ tashkiliy tuzilmalarimiz borasida naqadar amin bo‘la olamiz!

Oldinroq yashab o‘tgan masihiylar jamoatlarimizdagi kalomiy bo‘lmagan tashkilotlarning

strukturalarini qo'llab quvvatlagan bo'lisharmidi? Ular yo'l boshchilik va boshqaruvning ba'zi masalalarini oqilona qarorga qoldirish kerakligini tan olishgan, albatta. 1742-yildagi Filadelfiya Baptist Iqrornomasi bo'yicha, Muqaddas Kitobda imon va hayot uchun kerak bo'lgan barcha narsa, shu jumladan, jamoat qanday tashkil etilishi kerakligi ham "aniq qilib yozib qoldirilgan". Lekin keyin, iqrornomada "Xudoni olqishlash, jamoatni boshqarishga doir, inson faoliyati va jamiyatlar uchun umumiy bo'lgan ba'zi sharoitlar bor, bu sharoitlarda intuitiv ravishda va masihiy oqillik bilan, har doim rioya qilinishi kerak bo'lgan Kalomning umumiy qoidalariga asosan tartibga solinishi kerak"ligi tan olinadi. Boshqacha qilib aytganda, jamoat boshqaruvi masalasida ba'zi "kenglik"larga yo'l qo'yish mumkin. Masihiylar har doim buni tan olishadi.

Lekin, shu bilan birga, Muqaddas Kitobda mahalliy jamoat boshqaruvi haqida maxsus ko'rsatmalar berilganini ham tan olishadi. Shuning uchun, yo'l boshchilik bir kontekstdan ikkinchi kontekstga o'tishda qanday o'zgarishlarga duch kelishi haqida o'ylab ko'p vaqt sarflashdan oldin, biz Muqaddas

Kitob har birimizga nima deyishiga diqqat qilishimiz kerak.

USHBU KITOBNING MAQSADI

Muqaddas Kitob qanday yo‘lboshchilik namunasini tavsiya etadi?

Bir necha yil oldin mendan jamoat boshqaruvi mavzusidagi “Har xil qarashlar” kitobiga o‘z hissamni qo‘shishimni so‘rashgan edi. “Har xil qarashlar” kitobining maqsadi har xil an’analar vakillaridan o‘z qarashlarini so‘rashdan iborat. Ular foydali bo‘lishi mumkin, lekin men ularga rad javobini berdim. Muammo shunda ediki, muharrir mendan yo “katta cho‘pon”ning qarashi, yo “jamoat” qarashi, yoki “ko‘pchilik oqsoqollar”ning qarashini taqdim eta olishimni so‘ragan edi. Aslida, men ishonamanki, Muqaddas Kitob bularning barini maqullaydi! Jamoatlar katta yoki yetakchi cho‘pon *hamda* ko‘pchilik oqsoqollar jamoatchilik *kontekstida* yo‘lboshchilik qilishlaridan manfaatdor. Biz hamjihatlikda faoliyat ko‘rsatib, bir-birimizni mustahkamlab, jamoat hayotida har birimizning katta mehnatlarimizga muhtojmiz.

Jonatan Liman o'zining *Jamoat Hokimiyatini Tushunish* kitobida (bu ham ushbu kitob tegishli bo'lgan to'plamga kiradi) asosiy vaqtini jamoat hokimiyatini muhokama qilishga sarflaydi. Lekin, u muhokamani ko'pchilikdan iborat oqsoqollar-ning yo'l boshchiligi kontekstiga joylashtirib xulosa yasaydi. Ushbu kitobda esa, men buning aksini amalga oshiraman. Men ko'proq vaqtimni oqsoqollar yo'l boshchiligi muhokamasiga sarflayman (xizmatchilik - diakonlik bilan birga), lekin ushbu muhokamani jamoatchilik kontekstiga joylashtirib xulosa yasayman. Diakonlar va oqsoqollar kimlar? Ular nima ish qilishadi? Ular bir-birlariga qanday aloqador va oqsoqollar bir butunlik sifatida jamoatga qanday aloqador? Mening avvalgi *Xudo Ulug'vorligi-ning Namoyon Bo'lishi* kitobimni o'qigan bo'lsangiz, undagi bir qancha materiallarni bu yerda topishingiz mumkin, lekin yo'l boshchilik mavzusi atrofida qayta shakllantirilgan holda.

Bir muddat shaxsan Baptist cho'pon sifatida gapiradigan bo'lsam, men oqsoqollar jamoat a'zolarini jamoatdagi o'z vakolat va majburiyatlarini bajarish uchun qurollantirishga foydali ekanligining

guvohiman. Ulardan shunchasi tayyor turgan bir paytda, nima uchun bittagina ta'lim beruvchi va cho'pon bo'lishi kerak? Ko'p in'omlar! Ko'proq qurollantirishlar amalga oshirilmoqda! Ko'proq muqaddas imonlilar Xudo ishini bajarishga ko'tarilmoqda!

Jamoatimizning Baptist denominatsiyamizga qo'shgan hissasi kamaygani yo'q; ular oshdi. Ushbu odamlar bilan birga xizmat qilib cho'ponlik yo'l boshchiligimni obro'sizlantirgani yo'q; uni mustahkamladi. Biz hech qachon chaqaloqlarni cho'mdirish vasvasasiga yo'liqmadik! Bizning jamoatimiz xizmatda sustroq emas, balki faolroq bo'lishdi. Har bir oqsoqol o'z jamoati uchun Masihning in'omidir.

HOKIMIYATDAGI IN'OMLAR HAQIDA

Albatta, hokimiyatdagilarni in'om sifatida qabul qilish, har doim ham oson bo'lmaydi. Dunyoda gunoh paydo bo'lganidan keyin hokimiyat tez-tez suiste'mol qilib kelingan va buni tan olish ham to'g'ridir. Xudoning maqsadlaridan tashqaridagi hokimiyat har doim shaytonnikidir.

Lekin, shu bilan birga, barcha hokimiyatni shubha ostiga olish ham yaxshi emas. Agar biz Xudo xohlagandek yashamoqchi bo'lsak, biz Unga ishona olishimiz kerak, bu hokimiyatning vakolatli joylarida U qo'ygan O'z suratidagi shaxslarga ham ishonishni o'z ichiga oladi. Muqaddas Kitobda Odam Ato va Momo Havodan boshlab, Vahiydagi razil hukmdorlargacha bo'lganlar Xudo hokimiyatini rad etib hamda uni o'zlariniki qilib egallab olganliklari orqali o'zlarining yovuz asosga ega ekanliklarini namoyon etishadi.

Xudodan berilgan yo'l boshchilarning xizmatidan bahramand bo'lish juda katta imtiyozdir. Xudodan berilgan yo'l boshchilik esa, in'omdir. Hokimiyatni rad etish, bugungi kunda juda ko'pchilik shunday qilgani kabi, kaltabinlik va o'z-o'zini barbod qilish bilan barobardir. Hokimiyatsiz dunyo tiyilmagan xohishlar, boshqaruvchi vositasi yo'q mashina, svetofori yo'q chorraha, qoidasi yo'q o'yin, ota-onasi yo'q uy, Xudosiz dunyo kabidir. U qisqa bir muddat yashashi mumkin, lekin, tez orada u ma'nosiz va shavqatsiz bo'lib ko'rinadi, keyin oxiri fojiaiy yakun topadi.

Uni rad qilishga moyilligimizdan qat'iy nazar, Xudodan berilgan Kalomiy yo'l boshchilik Xudoulug'lanadigan jamoat barpo etish uchun o'ta muhimdir. Bizning jamoatdagi yo'l boshchilik faoliyatimiz Xudoning tabiati va xarakteriga aloqador. Biz oilaviy dasturxon atrofida, ishxonamizda, uyimizda va ayniqsa, jamoatda qonuniy hokimiyatni to'g'ri ifoda etsak, biz Xudoning suratini dunyoga namoyon etishga yordam beramiz. Bu jamoat yo'l boshchilariga tegishli da'vatdir. Naqadar imtiyozlidir yo'l boshchilik qilish va imtiyozlidir ularning ishini qo'llab quvvatlash!

1-BOB

DIAKONLAR KIMLAR?

Keling, bugungi kunda ko‘pgina jamoatlarga tanish bo‘lgan vazifadan boshlaymiz – bu diakonlik vazifasidir. “Diakon” so‘zini eshitganingizda, siz qanday jamoatdan kelib chiqishingizga qarab, ibodatxonaning mehmonlarni qabul qilish zalidagi yaxshilab laklangan hashamatli stol atrofida o‘tirgan kulrang sochli bankirlar ko‘z oldingizda gavdalanishi mumkin yoki, ehtimol, bu so‘z ilk jamoatning kundalik ehtiyojlarga doir xizmatlar bilan, xushxabarni yetkazish yoki cho‘ponlik g‘amxo‘rliги bilan shug‘ullanadigan xizmatchilarni eslatishi mumkin.

Muqaddas Kitob kimlarni diakonlar deb ataydi?

“DIAKON”GA IZOH

Yangi Ahdning zamonaviy tarjimalarida yunoncha *diakonos* so‘zi odatda “xizmatchi” sifatida tarjima

qilingan. Ba'zan u "daikon" sifatida transliteratsiya qilingan. U, umumiy ma'noda, xizmatni anglatishi,² alohida olganda, boshqaruvchilarni,³ yoki moddiy ehtiyojlar uchun g'amxo'rlik qilishni⁴ anglatishi mumkin. Yangi Ahddan ma'lumki, ayollar hech bo'lmaganda bu xizmatlardan ba'zilarini qilishlari mumkin.⁵ Farishtalar shu tarzda xizmat qilishadi.⁶ U, ba'zan, dasturxonga qarashish xizmatini ham anglatgan.⁷

Yangi Ahd dunyosi xizmatchilikka qanday qarashi jihatidan biznikiga o'xshash bo'lgan. Boshqalarga xizmat qilishni yunonlar uncha xush ko'rishmagan. Buning o'rniga, ular o'zini-o'zi hurmat qilish nuqtai nazari bilan o'zlarining xarakteri va shaxsiyatini rivojlantirishni xush ko'rishgan. Boshqalarga daikon sifatida xizmat qilish ularga "qul bo'lish" kabi kamsitiladigan xizmat sifatida qaralgan.

Shunga qaramay, Muqaddas Kitob va Iso xizmatni umuman boshqacha ta'riflaydi. Agar biz Yuhanno 12:26dagi asosiy so'zlarni tarjima emas, transliteratsiya qiladigan bo'lsak, Isoning quyidagi so'zlarini eshitamiz: "Kim menga *daikon* qilmoqchi bo'lsa, orqamdan yursin. Men qayerda bo'lsam,

*dai*konim ham u yerda bo‘lsin. Menga *dai*kon qilgan odamni Otam hurmat qiladi.” Matto 20:26da quyidagi so‘zlarni eshitamiz: “Orangizda kim katta bo‘lishni istasa, sizlarga *dai*kon qilsin.” Matto 23:11da esa: “Orangizda kim bosh bo‘lsa, sizlarga *dai*kon qilsin.”

Aslida, Iso O‘zini diakonning bir namunasi sifatida taqdim etdi.⁸ Muqaddas Kitob masihiylarni Masihning yoki Masih Xushxabarining diakonlari sifatida ta’riflaydi. Havoriylar ham diakonlar sifatida tasvirlangan va Pavlus tez-tez o‘zini va u bilan birga ishlaganlarni diakonlar deb atagan.⁹ U o‘zini ma’jusiylar orasidagi diakon deb ataydi.¹⁰ Pavlus Timo‘tiyni Masihning diakoni deb chaqiradi,¹¹ Butrus esa, Eski Ahd payg‘ambarlari biz masihiylarga diakonlar bo‘lishgan, deb ta’kidlaydi.¹² Muqaddas Kitob farishtalarni ham diakonlar deb chaqiradi. Shaytonning ham o‘z diakonlari bor.¹³

Biz har doim diakonlar xizmati bilan oqsoqollar xizmati o‘rtasidagi farqni ehtiyotkorlik bilan saqlashimiz kerak. Bir jihatdan, oqsoqollar ham, diakonlar ham “diakonlik” xizmatida qatnashadilar, lekin xizmat ikki xil umuman boshqa-boshqa

shaklga ega bo‘ladi, ularning ikkalasini ham biz Havoriylar 6-bobda ko‘rishimiz mumkin. Havoriylar “ozuqa tarqatish” bilan band bo‘lmasliklari kerakligi, chunki ular “Xudoning kalomi xizmati”ga mas’ul ekanliklarini aytib o‘tishadi (2–4-oyatlar). Bu ikkala joyda ishlatilgan xizmat so‘zi (ingliz tilida ular *service* va *ministry*) yunonchada yagona o‘zakga ega – bu albatta *diakon* so‘zidir. Shunday qilib, bizda an’anaviy diakonlik (ovqat ulashish, jismoniy xizmat) hamda Kalom “diakonligi” bor. Ikkinchisini bajarishga Xudo havoriylarni(keyinroq esa oqsoqollarni) da’vat etgan.

Biz bu parchaga keyingi bobda chuqurroq nazar solamiz. Lekin, Havoriylar 6-bobda tasvirlangan odamlar jamoatning ovqat tarqatuvchilari va ma’muriy ishlarni bajaruvchilari kabidirlar. Ular jamoatning moddiy, jismoniy ehtiyojlariga g‘amxo‘rlik qilishga mas’uldirlar. Jamoat diakonlikning har ikki ko‘rinishiga – Kalomga doir (oqsoqollik) va dasturxonga doir (diakonlik) – muhtojdir, toki ular bir-biri bilan adashtirilmasin va hech biri e’tibordan chetda qolmasin. Jamoat Kaloming va’z qilinishini ham, jamoat a’zolariga amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni ham (bu

birlikni mustahkamlashga yordam beradi) nazardan chetda qoldirmasliklari lozim. Jamoat hayoti va xizmatidagi har ikkala aspect (jihat) ham muhimdir. Jamoatimizda diakonlikning har ikkala turi faoliyat ko'rsatayotganiga amin bo'lish uchun biz diakonlik xizmatini oqsoqollar xizmatidan farqlay olishimiz lozim.

DIAKONLARNING XUSUSIYATLARI

Havoriylar 6-bobdan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, diakon sifatida xizmat qiladiganlar “Muqaddas Ruhga va donolikka to'lib toshgan” bo'lishi lozim (3-oyat). Ular moddiy narsalarga aloqador bo'lishlari mumkin, lekin baribir bu ruhiy xizmatdir. Bunday ruhiy donolik ularni jamoat manbalarini suruvning birligiga xizmat qiladigan tarzda nazorat qilishga qobiliyatli qiladi. Ular jamoat tomonidan tanlanishi va ularning ishonchiga ega bo'lishi kerak. Ular xizmatdagi ma'lum bir ehtiyojlar uchun mas'uliyatni zo'r ishtiyok va tirishqoqlik bilan o'z zimmalariga olishlari lozim.

1-Timo'tiy 3:8-13da Pavlus diakonlar qanday bo'lishlari kerakligini sanab o'tishda davom etadi.

Ular hurmatga sazovor, samimiy, mayxo‘rlik yoki molparastlikdan yiroq, imon haqiqati bo‘yicha yashab, barcha ishni vijdonan bajaradigan, sinovdan o‘tgan va kamchiliksiz bo‘lgan, xotiniga vafodor, farzandlarini va xonadonini yaxshi boshqaqaradigan insonlar bo‘lishlari lozim.

“Xotiniga vafodor” bo‘lish buyrug‘i ayollarning diakonlik vazifalarida xizmat qilishlariga to‘sqinlik qilmaydi. Rimliklarga 16:1dagi “diakon” Fiva misoli, Muqaddas Kitobning boshqa joylarida ayollarga nisbatan ishlatilgan “diakon” so‘zi va qaysidir darajada, Baptist jamoatlaridagi ayol diakonlarning uzoq tarixi o‘z jamoatimda ayollarning diakonlik xizmatini ham yo‘lga qo‘yishimga turtki bergan. Aytilganki, 1-Timo‘tiy 2-bob ayollarni oqsoqollar sifatida xizmat qilishini taqiqlaydi. Shuning uchun, agar jamoat oqsoqollar va diakonlar rolini adashtirsa (bugungi kunda ko‘pgina Baptist jamoatlarida bo‘lgani kabi), biz unda ayollarni diakon sifatida tan olishga to‘sqinlik qilgan bo‘lamiz. Oqsoqollik va diakonlik vazifalari o‘rtasidagi farq yaqqol ma‘lum bo‘lgandagina, biz opa-singillarimizni diakon sifatida tan olinishlarini bemalol qo‘llab-quvvatlay olamiz.

TARIXGA NAZAR

Olimlar Hosil bayramidan keyingi bir necha oʻn yillikdagi jamoatlarning strukturalari naqadar oʻzgaruvchan boʻlganligiga qarshilar. Ilk jamoatlarda koʻpgina oqsoqollar va koʻpgina diakonlar boʻlgan. Pavlus Filippidagi jamoatga qanday murojaat qilgani haqida fikr yuriting: “Filippi shahridagi barcha Iso Masihning azizlariga hamda jamoat yetakchilari (yoki oqsoqollar) va xizmatchilariga (diakonlariga) salom!” (Fil. 1:1).

Yangi Ahddan keyingi vaqtlarda ushba alohida xizmatlar, yaʼni oqsoqollar xizmati va diakonlar xizmati, davom etgan. Oqsoqollarning roli yepiskoplar va ruhoniylar oʻrtasida farqlana boshlanadi, lekin ilk qoʻlyozmalarda diakonlarning yepiskop va ruhoniylardan keyin sanalishi davom etadi. Odatda ularga yepiskop va yetakchilarga yordamlashish vazifasi qoʻyilgan. Ilk jamoatlarda, diakonlik vazifasi, umumiy qilib aytganda, diakonning butun hayoti davomida saqlab qolingani koʻrinadi. Shunga qaramay, ushbu xizmatning vazifalari joyga qarab farqlangan.

Diakonlik vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Jamoatda Muqaddas Kitobni o‘qish yoki uni kuylash;
- Qurbonliklarni qabul qilish va kim berganini yozib qo‘yish;
- Qurbonliklarni yepiskoplarga, oqsoqollarga va o‘zlariga; erga tegmagan ayollar va beva ayollarga; kambag‘allarga tarqatish;
- Qutlug‘ Kechlikdagi non va kosani tarqatish;
- Yig‘ilishlar paytida ibodatlarni olib borish; kechlikdan iste‘mol qilishi lozim bo‘lmaganlarni marosim boshlanishidan oldin unga ishtirok etmasliklariga ishora berish.

Bu ikkinchi asrdan oltinchi asrgacha bo‘lgan davrdagi diakonlarning vazifalarini umumlashtiradi.

Monarxik yepiskoplik rivojlangani sari, uning ostida monarxik diakonlik ham rivojlandi.

Yepiskopning roli oshganidek, arxidiakonning ham roli oshdi. Arxidiakon ma'lum bir joydagi yetakchi diakon bo'lgan va uni moddiy masalalar bilan shug'ullanuvchi o'rinbosar (yepiskop o'rinbosari) sifatida ta'riflash mumkin. Tabiiyki, Rim arxidiakoni o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zo'ravonlar oxir-oqibatda diakonlik lavozimiga chirmashib chiqishdi va diakonlar – ayniqsa, arxidiakonlar – juda boy bo'lib ketishdi. Boshqalarga xizmat qilishi kerak bo'lgan odamlar, buning o'rniga boshqalardan o'z xohish-istaklari yo'lida foydalanganlari naqadar achinarli holat!

Bir necha sabablar tufayli O'rta Asrlarda diakonlarning ta'siri pasayib ketadi. Ehson qiluvchilar uchun kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilish ko'proq Purgatoriya (katoliklarning qarashlari bo'yicha tozalanish joyi) dagi vaqtlarini kamaytirish maqsadida Xudo nazarida “savob”ga ega bo'lish vositasiga aylanadi.

Pravoslav Cherkovi shu lavozimda xizmat qilgan diakon – havaskorlarni har doim alohida ajratgan. Shunga qaramay, G'arbda, O'rta Asrlarning oxirlarida diakon bo'lish ruhoniy etib tayinlanish

yo'lining birinchi qadamiga aylanadi. Rim Katolik hamda Yepiskopal cherkovlarida diakonlar hozir ham xuddi shunday – to'laqonli ruhoniy bo'lishdan oldin diakonlar sifatida xizmat qiladigan amaliyotchi xizmatchilardir. Shunga qaramay, Ikkinchi Vatikan Kengashi boshqacharoq, yani doimiy kalomiyroq bo'lgan diakonlik turi Rim Katolik Cherkovida bo'lishi mumkinligini qayta ko'rib chiqdi.

Martin Lyuter jamoatning moddiy ehtiyojlari, ayniqsa, nochorlar haqida g'amxo'rlik qilish vazifasini qayta tiklaydi, shunday bo'lsada, Lyuteran jamoatlari Yangi Ahdning diakonlik g'oyasini qayta tiklamaydi. Bugungi kunda, Lyuteran jamoatlarida, amaliyotlar farqlidir. Ba'zi joylarda diakonlar tayinlanishmaydi, lekin boshqa joylarda, har qanday tayinlangan yordamchi xizmatchi diakon deb ataladi, xususan, cho'ponga yordamlashish va xushxabarchilik vazifalariga ega bo'lgan xizmatchilar ham.

Ko'pgina yevangel (injilchi) Protestant jamoatlarida Reformatsiya paytida diakonlar va oqsoqollar yoki cho'ponlarni farqlash kalomiy amaliyoti o'sib borgan. Kembridjdagi Martin Buser kabi ba'zi Protestantlar diakonlarning vazifalari qayta belgilanishi

kerakligini ta’kidlashadi. Ularning aytishicha, diakonlar loyiq va noloyiq kambag‘allarni farqlash uchun ishlashlari kerak. Ular muhtojliklarni alohida o‘rganib chiqib, kimdirga g‘amxo‘rlik qilishni, kimdirga esa, rad qilishni bilishi kerak. Ular jamoat a‘zolari tomonidan berilgan mablag‘larning yozma hisobotini yurutishlari kerak.

Presbiterian jamoatlarda diakonlar nochor va kasallar uchun ehsonlarni amalga oshirishadi va ularga g‘amxo‘rlik qilishadi (hatto bu vazifalarni hozirda dunyoviy davlat o‘z zimmasiga olgan bo‘lsada). Diakonlar oqsoqollardan alohida bo‘lib, ularga javobgardirlar.

Ko‘pgina Baptist va kongregatsion jamoatlar ham bir paytda bu ikki lavozimni bir-biridan farqlab, bu kalomiy qarashni borgan sari ko‘proq tiklashmoqda. Lekin, ba’zi boshqa jamoatlarda, oqsoqollarning ishi diakonlarga topshirilmoqda. Ular turli xil ishlarda, ayniqsa, Qutlug‘ Kechlikni tarqatayotganda, cho‘ponlarga yordam berishadi va ular rivojlanib jamoatning moddiy hamda ijroiya masalalari bo‘yicha kengashga aylanishgan, xususan, oqsoqollar kengashi bo‘lmagan (vaqt o‘tib yo‘qolib

borgan) jamoatlarda. Diakonlar, odatda chegaralangan muddatda faol xizmat qilishadi, lekin ularning “diakon” etib tayinlanishi, aslida, doimiy bo‘ladi.

Yuqorida ba’zi jamoatlar buni qanday qilishganini ko‘rib chiqdik. Muqaddas Kitobda biz amaliyotlarimizni isloh qilishimiz uchun qandaydir ko‘rsatmalar mavjudmi?

2-BOB

DIAKONLAR NIMA ISH QILISHADI?

Ko‘rib chiqqanimizdek, Yangi Ahdda diakonning xizmatiga ko‘p marotaba duch kelamiz. Shunga qaramay, diakon qiladigan ish, ehtimol, Havoriylar 6-bobda eng aniq tasvirlangan.

"Shu vaqt davomida shogirdlarning soni ortib boraverdi. Ammo shu paytda yunonzabon va oromiyzabon imonli yahudiylar orasida ziddiyat paydo bo‘ldi. Yunonzabon yahudiylar: "Kundalik oziq-ovqat taqsimlanganda, bizning bevalarimiz e‘tibordan chetda qolyaptilar", deb e‘tiroz bildirdilar. O‘n ikki havoriy jamiki shogirdlarni yig‘ib, ularga shunday dedilar: — Biz Xudoning

kalomini va'z qilishni bir chetda qoldirib, ozuqa tarqatish bilan ovora bo'lishimiz to'g'ri emas. Birodarlar, orangizdan yetti kishini tanlanglar. Ular obro'–e'tiborga ega, Muqaddas Ruhga va donolikka to'lib–toshgan bo'lsin. Ularni bu xizmatga tayin etaylik. Biz esa o'zimizni ibodatga va Xudoning kalomi xizmatiga bag'ishlaylik. Ularning gapi butun jamoaga ma'qul bo'ldi. Jamoa imonga va Muqaddas Ruhga to'la Steffanni, shuningdek Filip, Proxor, Nikanor, Timon, Parmen va yahudiy diniga kirgan Antioxiyalik Nikolayni tanladilar. Ular bu odamlarni havoriylarning oldiga turg'izib qo'yidilar. Havoriylar ularga qo'llarini qo'yib, ibodat qildilar. Shunday qilib, Xudoning so'zi yoyilib boraverdi. Shogirdlar soni Qudusda ko'paydi. Ruhoniylarning ko'pchiligi imonga keldilar." (1–7-oyatlar)

Diakonlik xizmatiga nom berilmagan, lekin ushbu yetti kishi nima qilishini tasvirlash uchun asl matnda *diakon* fe'li ishlatilgan (3-oyatda). Bu yerda

xizmatga tayinlangan yetti kishi rasman diakonlar bo‘lishmasada, bu parcha diakonlik xizmatining uch jihatini ko‘rishimizga yordam beradi.¹⁴

JAMOATNING MODDIY EHTIYOJLARI UCHUN G‘AMXO‘RLIK QILISH

Birinchidan, diakonlar jamoatning moddiy ehtiyojlari uchun g‘amxo‘rlik qilishadi. Ba’zi beva ayollar kunlik oziq-ovqat taqsimlanganda e’tibordan chetda qolayotgan edilar. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “*diakon*” so‘zi xizmatchini anglatadi va u o‘sha paytda dasturxonga xizmat qiladigan yoki boshqa turdagi xizmatlarni, asosan, jismoniy yoki moddiy xizmatlarni bajaradigan odamlarga nisbatan ishlatilgan. Havoriylar bu xizmatni “moddiy yumushlarni bajarish” yoki so‘zma-so‘z – “dasturxonga diakonlik (xizmat) qilish” deya ta’riflashgan.

Havoriylar 6-bobdagi diakonlar ehtimol barcha diakonlik xizmatlarini o‘zlari bajarishmagan. Balki, ushbu bir necha diakonlar jamoatdagi o‘sha bevalar e’tibordan chetda qolmasligini ta’minlash uchun, ehtimol, boshqa a’zolarining ishlarini tashkil etishgan

va ko'maklashishgan. Axir, Quddusdagi jamoatning minglab a'zolari bo'lgan.

Odamlar uchun, ayniqsa, jamoatimizning boshqa a'zolari uchun g'amxo'rlik qilish muhimdir, buning uchta sababi bor: 1) Bu ularning moddiy farovonligi yo'lida xizmat qiladi; 2) bu ularning ruhiy farovonligiga xizmat qiladi; 3) bu tashqaridagi dunyo uchun guvohlik bo'lib xizmat qiladi. Isoning quyidagi so'zlarini eslang: "Agar bir-biringizni sevsangiz, sizlar Mening shogirdlarim ekaningizni hamma shundan bilib oladi" (Yuhanno 13:35). Havoriylar 6-bobdagi ko'rsatilgan moddiy g'amxo'rlik Isoning sevgisini namoyon etadi.

TANADAGI BIRLIK UCHUN ISHLASH

Muhtojlarga yo'naltirilgan ushbu birinchi maqsad orqasidan Havoriylar 6-bobda biz bir butun badan uchun kattaroq maqsadni ko'rishimiz mumkin: diakonlar jamoat tanasining birligi uchun ishlashadi.

Ushbu yetti kishiga qanday vazifalar yuklanganiga yana bir marta e'tibor bering. Ular bevalarga oziq-ovqat tarqatishni odillik bilan amalga oshirishlari kerak edi, to'g'ri. Lekin, bu nima uchun

muhim ahamiyatga ega? Chunki, ushbu moddiy masalaga e'tiborsizlik, Masih tanasidagi ruhiy parokandalikka sabab bo'layotgan edi. E'tibor bergan bo'lsangiz, parcha jamoatdagi bir guruh odamlarning boshqa bir guruhga nisbatan shikoyatidan boshlanadi. Bu havoriylarning diqqatini o'ziga tortadi. Ular, shunchaki, jamoatdagi bir xayrixohlik xizmatiga doir muammoni yechayotgan emasdilar. Ular jamoat birligining darz ketishini to'xtatmoqchi edilar. U alohida xavfli ko'rinishga ega bo'lib, madaniy-etnik jihatdan bo'linishni o'zida aks ettirayotgan edi. Shuning uchun, diakonlar jamoatdagi bo'linishni yo'q qilish uchun tayinlanadilar.

Rostdan ham, bir-birimizni qo'llab-quvvatlash va bir-birimizga dalda berishimiz, bu Xudo Ruhining O'z jamoatiga beradigan in'omlarining maqsadidir (Rim. 1:11–12). Pavlus Korinfliklarga maktubida ularning in'omlari “umumiy manfaat uchun” ishlashi kerakligini aytadi (1-Kor. 12:4–7, 12). U yana ularga shunday deydi: “Modomiki sizlar Ruh beradigan in'omlarga ega bo'lishga intilayotgan ekansizlar, butun jamoatning imonini mustahkamlaydigan in'omga boy bo'lish payida bo'linglar” (1-Kor. 14:12). Ozgina

keyinroq u qo‘shimcha qiladi: “Bularning hammasi jamoatning imonini mustahkamlash niyatida qilin-
sin” (14:26). Jon Kalvin, 14-bobni izohlab quyidagicha
yozadi: “Inson qanchalik ko‘proq o‘zini umumiy rivo-
jlanishga bag‘ishlasa, Pavlus uni shuncha ko‘proq
hurmat qilinishini xohlaydi.” Shuning uchun, Butrus,
quyidagicha buyuradi: “Xudo sizlarga bergan in‘omlar
bilan bir-birlaringizga xizmat qilinglar. Xudoning bu
boy ehsonlaridan oqilona foydalaninglar” (1-But. 4:10).
Xuddi shunga o‘xshab, Havoriylar 6-bobdagi diakon-
larning xizmati jamoatning birligi uchun ishlab, Masih
tanasini “barpo etish” demakdir.

Buni jamoatimizda qo‘llasak bo‘ladi: jamoa-
tingizdan ko‘ngli to‘lmagan odamlarni diakonlar
sifatida xizmat qilishini xohlamaysiz. Diakonlar
hech qachon eng baland ovozda shikoyat qiladigan
hamda o‘z harakatlari yoki munosabatlari bilan
jamoatingizga o‘z noroziligini bildiradigan odamlar
bo‘lmasligi kerak. Buning mutlaqo aksi! Diakonlar
xuddi mashina ovozini pasaytiruvchi (glushitel) yoki
uning amortizatori kabi bo‘lishlari kerak.

Yana bir saboq: Siz faqat o‘zining ishi, xizmati
haqida qayg‘uradigan yoki tor dunyoqarashga ega

boʻlgan odamlarni diakonlar sifatida xizmat qilishini xohlamaysiz. Siz faqatgina oʻz xizmati sohasi va oʻsha sohadagi imtiyozlari haqida oʻylaydiganlarni emas, balki, butun jamoat uchun qaygʻuradigan odamlarni xohlaysiz. Toʻgʻri, ular faqatgina oʻz sohalariга tegishli ehtiyojlarni qondiradilar, lekin ular buni butun jamoat nomidan va ushbu butunlikning sogʻlomligiga taʼsir qiladigan tarzda amalga oshiradilar. Ular xuddi lobbistlarga oʻxshab boshqalarga qanchalik qimmatga tushishi haqida oʻylamasdan, faqatgina oʻzlarinining manfaatlari haqida oʻylaydilar. Aslida, ular oʻzlari bilan birga ishlaydigan odamlarga oʻsha ishni “butun”ligicha birlashtirish va tuzatishning bir qismi sifatida koʻrishlariga yordam beradilar.

Diakonlar mehribonlik va sevgiga toʻla xizmat iplari bilan jamoatni bir butunlikka bogʻlaydilar. Ular jamoatni bunyod etuvchilardir.

KALOMGA DOIR XIZMATGA KO'MAKLASHISH

Uchinchi dan, Havoriylar 6-bobda xizmatga tayinlangan yetti kishi Kalom xizmatiga

ko'maklashish uchun ishlaganlar. Havoriylar moddiy muhtojliklar haqida g'amxo'rlik qilish butun jamoatning javobgarligi ekanligini va shuning uchun, qaysidir darajada ularning ham javobgarligi ekanligini tan olishgan. Lekin, ular Kalom va ibodat xizmatiga qatnasha olishlari uchun bu javobgarlikni jamoat ichidagi boshqa guruhga topshirishgan.

Ular asosiy ta'lim beruvchilar amalga oshirishga imkoniyati bo'lmagan vazifalarni bajarishga yordamlashish orqali jamoatga bir butunlik sifatida xizmat qiladigan xizmatchilar bo'lishgan. Shu tarzda ular Kalom xizmati bilan shug'ullanuvchilarga ko'maklashishgan va shu orqali ularni qo'llab-quvvatlashgan.

Yana bir saboq: siz Kalomni va'z qilish va ta'lim berish xizmatining muhimligini tan olmaydiganlarni diakon qilib tayinlay olmaysiz, aksincha, ular buni qattiq himoya qiladigan odamlar bo'lishlari kerak. Kengroq qilib aytganda, siz jamoatdagi eng yaxshi qo'llab-quvvatlovchi odamlarni diakonlar sifatida xizmat qilishini xohlaysiz. Shuning uchun, kim diakon sifatida xizmat qilishi mumkinligini

o'ylayotganingizda, dalda berish in'omiga ega bo'lgan odamlarni izlang.

Mening jamoatimda, Vashingtonda, biz diakonlarimizni kengash beruvchi organ sifatida emas, jamoatda kerak bo'lgan ma'lum bir xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi odamlar sifatida tan olamiz. Yangi Ahdning hech bir joyida ikkita kengash beruvchi organ bo'lishi va ular ko'pgina amaliy qiyinchiliklarga ega bo'lishi haqida ko'rsatmalar berilmagan. Buning o'rniga, bizda mehmondo'stlik xizmatimizni nazorat qiladigan bitta diakon bor: boshqa biri xizmatimizni veb-sahifa orqali muvofiqlashtiradi, yana biri ovoz tizmlari uchun javobgar; yana boshqa biri esa, mashinalar to'xtab turish joyini nazorat qiladi va hokazo. Buni yozayotganimda hozir bizda jami yigirma ikkita har xil diakonlar bizga diakonlik lavozimida xizmat qilmoqdalar. Biz vaqti-vaqti bilan ishni muvofiqlashtirib boramiz, masalan boshqa kerak bo'lmagan xizmatlarni yopamiz yoki rivojlanib, kengayib borayotganlarini ikki va hatto uchta xizmatga bo'lamiz; bolalarga qarash va ovoz xizmati diakonlari bilan xuddi shunday yo'l tutdik. Jamoatda yangi muhtojlik yoki imkoniyat paydo bo'lsa, biz

o'sha muhtojlikka xizmat qilishi uchun yangi diakonlik lavozimini joriy etamiz. Jamoatimda ishlaydigan har xil diakonlik lavozimi ish vazifalari namunasini ko'rish uchun ilovaga qarang.

Shu bilan birga, biz umid qilamizki, ushbu diakonlar jamoatning kadrlar manbasidan samarali foydalanuvchi yetakchilari bo'ladilar. Ularning maqsadlarida bir butun tanani o'rganib chiqish yotadi, toki ular jamoat xizmatini bir butun sifatida oldinga yuritishga boshqalarni rag'batlantirish uchun ishlay olsinlar. Ular bizga ko'rsatayotgan bu xizmat juda qadrli. Ular diakon sifatida xizmat qilayotganda, bunga o'zlarining jamoatdagi asosiy xizmatlari sifatida qarashlari lozim. Lekin, bunday xizmatchilar boshqa birodar va opa-singillar yuraklarida xizmatchilikka xohishni shakllantirganlarida jamoat uchun naqadar ajoyib marhamat bo'la oladilar! O'zlarining faoliyat va ijodlari orqali diakonlarimiz bu lavozimda xizmat qilib tugatganlaridan ancha keyin ham jamoatimizga marhamat bo'lib qoladilar.

Xulosa qilib aytganda, Yangi Ahdda diakonlik xizmatining uch jihati birgalikda keltiriladi. Biz ularni Havoriylar 6-bobda ko'rib chiqdik – bu

moddiy muhtojliklar haqida g'amxo'rlik qilish orqali Masih tanasini, Kalom xizmatchilari rahnamoligi ostida, birlashtirishdir. Ular dalda beruvchilar, tinchlik o'rnatuvchilar va xizmatkorlar bo'lishlari kerak. Jamoatimda oqsoqollar ehtiyoj tug'ilganda erkak yoki ayolni bu lavozimga tayinlashadi va ular ushbu xislatlarga ega bo'lgan biron kishini topishadi. Keyin jamoat ushbu tayinlovlarni tasdiqlash uchun ovoz berishadi. Dietrix Bonhoeffer aytganidek "Jamoatga zo'r shaxslar emas, balki, Isoning va birodarlarning sadoqatli xizmatkorlari kerak."¹⁵

3-BOB

OQSOQOLLAR KIMLAR?

Diakonlar singari muhim bo'lgan va hatto masihiylar sifatida hayotimizga jamoatlarimizda fundamental ta'sirga ega bo'lgan boshqa guruh xizmati – bu oqsoqollik xizmatidir. Yangi Ahdda oqsoqol, cho'pon va ustoz so'zlari bir-biri bilan o'zaro almasha bo'ladigan holda ishlatilgan, men ham ular-dan xuddi shu tarzda foydalanaman (Hav. 20:17, 28; 1-But. 5:1–2; hamda Efes. 4:11 ga qarang).

OQSOQOLLARNING KO'PLIGI

Mahalliy jamoatning cho'ponlari yoki oqsoqollari haqida ta'kidlash lozim bo'lgan birinchi narsa bu ularning ko'plikda ishlatilishidir. Yangi Ahdda biron bir jamoatda oqsoqollarning aniq soni hech qachon tilga olinmagan, lekin u muntazam ravishda ko'plik shaklida uchraydi:

- “Ular har bir imonlilar jamoatiga oqsoqollar tayin qildilar. So‘ng ibodat qilib va ro‘za tutib, oqsoqollarni o‘zlari ishongan Rabbimiz Isoning panohiga topshirdilar.” (Havoriylar. 14:23; hamda 11:30; 15:2, 4, 6, 22–23ga ham qarang);
- “Ular shaharlar oralab o‘tganlarida, Qudusdagi havoriylar va oqsoqollar qaror qilgan qoidalarni imonlilarga yetkazib, bularga rioya qilinglar, deb aytishardi.” (Havoriylar 16:4);
- “Pavlus Militdan Efesga xabar yuborib, imonlilar jamoatining oqsoqollariga: “Mening huzurimga kelsangizlar”, deb iltimos qildi.” (Havoriylar 20:17);
- “Keyingi kuni Pavlus biz bilan birga Yoqubni ko‘rgani bordi. Barcha jamoat oqsoqollari ham u yerda yig‘ilishgan edi.” (Havoriylar 21:18);
- “O‘zingga berilgan in‘omga e‘tiborli bo‘l, uni ishga sol. Axir, sen bu in‘omingni aytilgan bashoratlar va oqsoqollar boshingga qo‘l qo‘yib qilgan duolari natijasida

olgansan.” (1-Tim. 4:14; va 5:17ga ham qarang);

- “Qolgan ishlarni bitirishing uchun men seni Krit orolida qoldirgan edim. Senga buyurganimdek, orolning har bir shahridagi imonlilar jamoati ustidan oqsoqollar tayinlagin.” (Titus 1:5);
- “Orangizda kasal bo‘lgan bormi? Jamoat oqsoqollarini chaqirtirsin. Ular ibodat qilib, Rabbimiz Iso nomi bilan bemorning boshiga zaytun moyini surtsinlar.” (Yoqub 5:14);
- “Ey jamoat oqsoqollari, endi sizlarga bir nasihatim bor. Men ham sizlarga o‘xshagan oqsoqolman.” (1-But. 5:1).

Misollar deyarli bir xil shaklga ega va dalillar nihoyatda ko‘p. Umuman olganda, oqsoqolning birlikda ishlatilishini faqatgina 2- va 3-Yuhannoda (bunda muallif o‘zini oqsoqol deb ataydi) hamda Pavlusning Timo‘tiyga yozgan 1-maktubi 5-bobida (“bir oqsoqol”ga qarshi qo‘yilgan ayblovga doir ko‘rsatmalar berganda) uchratish mumkin. Yangi

Ahdda jamoatlar, yagona oqsoqol tomonidan emas, asosan, bir xil shaklda oqsoqollar organi tomonidan yo'lboshchilik qilinishi namoyon bo'ladi.

OQSOQOLLARNING XUSUSIYATLARI

Kim oqsoqol bo'lishi kerak va u qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Pavlus 1-Timo'tiy 2- va 3-boblarda hamda Titus 1-bobda bu haqda gapiradi.

Pavlus 1-Timo'tiy 2:12da "Xotin erkakka ta'lim berishiga va uning ustidan hukmronlik qilishiga ruxsat bermayman. Xotin sukut saqlasin." Pavlus bu yerda hukmronlik qilishning qanday ko'rinishini nazarda tutgan bo'lishidan qat'iy nazar, u jamoatda ayollar erkaklarga ta'lim berishini xohlamagan va bu oqsoqollik lavozimi faqatgina erkaklar uchun band etilganligini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, ilk jamoat erkak kishi ayol kishi ustidan hokimiyatga ega qilib yaratilganini inobatga olib, bu tartibni jamoat amaliyotida namoyon etgan.

Galatiyaliklar 3:28 haqida nima deysiz, bu yerda Masihda na ayol va na erkak borligi haqida gapirilgan-ku? Bu joyda bizning faqatgina inoyat orqali najotga erishganlar sifatida Xudo taxti oldida teng

qadrga ega ekanligimiz nazarda tutilgan. Bu jinlar orasidagi barcha farqlarni yo‘q qilishni ham, bolani dunyoga keltirishdagi ayol va erkakning har xil rolini yo‘q qilishni ham anglatmaydi.

Pavlus 1-Timo‘tiy 3-bobda xususiyatlarning to‘liqroq ro‘yxatini taqdim etadi (Titus 1:5–9ga ham qarang):

“Imonlilar jamoatining yetakchisi bo‘lishga intilgan inson olijanob ishni orzu qilgan bo‘ladi”, degan gap to‘g‘ri va asoslidir. Darhaqiqat, bunday olijanob vazifaga tayinlanadigan inson yaxshi nom chiqargan bo‘lishi shart. U o‘z xotiniga vafodor, mulohazali, vazmin, odobli, mehmondo‘st, ta‘lim berishga qobiliyatli bo‘lsin. U mayxo‘r, jahldor, janjalkash emas, balki muloyim, pulparastlikdan yiroq, xonadonini yaxshi boshqaradigan, farzandlari unga bo‘ysunib hurmat qiladigan bo‘lsin. Agar yetakchi o‘z xonadonini boshqara olmasa, Xudoning jamoatiga qanday g‘amxo‘rlik qila oladi?! Endigina

imonga kirgan odam yetakchi bo'lmasin, tag'in kerilib, iblisning halokatli changaliga tushib qolmasin. U jamoatga qarashli bo'lmagan odamlar orasida ham hurmat-e'tiborga ega bo'lsin. Shunda u malomatga qolmaydi, shaytonning tuzog'iga tushmaydi." (1-Tim. 3:1-7)

Ushbu ro'yxat haqida fikr bildirib, Yangi Ahd bo'yicha olim D.A. Karson ushbu xususiyatlar naqadar odatiyligidan hayratlanadi. Pavlus minglab odamlarga va'z qila oladigan, millionlab odamlarga xushxabar ayta oladigan va yonayotgan binolardan yetimlarni qutqara oladigan odamlarni so'ramayapti. Aksincha, u hamma masihiylarga tegishli xususiyatlarni sanab o'tyapti – "ta'lim berishga qobiliyatli" va "endigina imonga kelgan bo'lmagan"dan tashqari. Nima uchun shunday bo'lgan? Chunki, oqsoqol boshqa masihiylar uchun o'rnak bo'ladigan yashash tarzini namoyon etishi kerak. Siz oqsoqolning hayot namunasi qandaydir erishib bo'lmaydigan narsa emas, balki unga ergashsa bo'ladigan bo'lishini xohlaysiz.

Bu xususiyatlar oqsoqolni tashqaridagi odamlarga maqtay oladigan xislatlar bo'lishi yoki bu insonni o'rab turgan o'sha paytdagi madaniyat tomonidan ham saxovatli inson sifatida tan olinishga sababchi bo'lishini ham inobatga oling. Biz oqsoqolda ko'rishni xohlagan boshqa xislatlar ham bor, masalan, doimiy tarzda Kalom o'qish va ibodat qilish. Lekin, Pavlus bularning bittasini ham tilga olmaydi. Bu shuni anglatadiki, biz ushbu ro'yxatni har tomonlama to'liq deb bilmasligimiz kerak, bu joyda Pavlus hatto imonsizlar ham yaxshi ekanligini tan oladigan xislatlarga urg'u beryapti. Buni Efes jamoatidagi ba'zi soxta ustozlarning yaqqol ko'rinib turadigan diyonatsizligi bilan taqqoslang (ular Xudo jamoat orqali ulug'lanadigan butun yo'lini xavf ostiga qo'yganlar).

Jamoatlarimizda bunday yetakchilarni qanday topamiz? Biz Xudodan donolik berishini so'rab ibodat qilamiz. Biz Uning Kalomini, xususan, 1-Timo'tiy va Titusdagi ushbu parchalarni o'rganib chiqamiz. Masih bunday in'omlarni berganda, shu in'omlarga ega bo'lganlarni aniqlash va buni tasdiqlash uchun kuzatamiz. Biz ularni aniqlashda

Masih ularni berishiga qaraganda sustroq bo‘lmasligimiz kerak.

Shu bilan birga, biz agar inson dunyoda yaxshi yetakchi sifatida o‘zini ko‘rsatganligi uchun u jamoatda ham yetakchilik qilishga mos keladi deb, xulosa qilmasligimiz kerak. Juda ko‘p jamoatlar biznesda yoki korporativ dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lib kelgan odamni xizmatga tayinlash tuzog‘iga tushadilar. Os Guinnessning bir yapon biznesmenidan eshitgan quyidagi so‘zlarni eshitish naqadar aчинаrli - “Men buddist yetakchini uchratganimda, muqaddas insonni uchratganday bo‘laman. Masihiy yetakchini uchratganimda esa menejer (ish boshqaruvchi) ni uchratganday bo‘laman.”¹⁶

Jamoatlar yaxshi xarakter va obro‘ga ega, Kalom bo‘yicha ta‘lim berish xizmati qo‘lidan keladigan hamda samarali insonni izlashi kerak. Bu xususiyatlar jamoatimizning yetakchilarini boshqalardan ajratib turishi kerak. Ular o‘zlari uchun emas, balki boshqalar uchun yashaydilar. Shuning uchun, ular pulni sevuvchi emas, balki mehmonlarni sevuvchi bo‘lishi kerak – mehmondo‘stlikning asl ma‘nosi ham shunda.

TARIXGA NAZAR

Barcha jamoatlarda, boshqa nom bilan atalgan bo‘lishsa ham, oqsoqollar vazifalarini bajargan shaxslar bo‘lgan. Ushbu lavozimning Yangi Ahddagi eng tarqalgan ikki nomi *episcopos* (yetakchi, cho‘pon) va *presbuteros* (oqsoqol) bo‘lgan.

Bugungi kunda yevangelchi (injilchilar) lar *oqsoqol* so‘zini eshitganda, ular odatda “Presviter” haqida o‘ylashadi. Oqsoqollarni Presviterlar sifatida ko‘rish tarixan to‘g‘ri bo‘lsada, ularni faqatgina Presviterlar sifatida ko‘rish to‘g‘ri emas. Birinchi Kongregatsionalistlar XVI asrda “oqsoqollik” Yangi Ahd jamoatidagi bitta lavozim bo‘lganligini o‘rgatishgan. Oqsoqollarni XVIII-XIX asrlar bo‘ylab Amerikadagi Baptist jamoatlarida ham topsa bo‘lar edi.¹⁷ Misol uchun, Janubiy Baptist Konvensiyasi birinchi raisi V. B. Jonson, jamoat hayoti haqida yozgan kitobida mahalliy jamoatda ko‘pgina oqsoqollar bo‘lish kerakligi g‘oyasini qattiq himoya qilgan.

Muqaddas Kitobga diqqatsizlik tufaylimi yoki chegaralardagi hayot bosimi (u yerlarda jamoatlar shiddatli tezlik bilan tarqalib borayotgan edi) tufaylimi, kalomga asoslangan bunday yetakchilikni

yetishtirish amaliyoti Baptist jamoatlarda yo‘qolib bordi. Lekin, Baptist maqolalarida ushbu kalomiy lavozimni qayta tiklashga chorlash davom ettiriladi. Va nihoyat, XX asrning boshlarida, Baptist nashrlari yetakchilarga “oqsoqol” maqomi bilan murojaat qiladigan bo‘ldi.

Shunga qaramay, ushbu amaliyot XX asrda Baptist jamoatlari orasida noodatiy bo‘lgan bo‘lsada, hozirda unga qaytish jarayoni o‘rib bormoqda va bu, albatta, yaxshilikka. U Yangi Ahd jamoatlariga kerak bo‘lgan va u hozir ham bizlarga kerak.

OQSOQOLLAR NIMA ISH QILISHADI?

Biz oqsoqollar kimlar ekanligini ko‘rib chiqdik. Quyida esa, ular nima ish qilishlari haqida gaplashamiz.

OQSOQOLLAR IBODAT QILISHADI

Jamoat oqsoqollari jamoat a‘zolari uchun ibodat qiladilar (Yoqub 5:14; Havoriylar 6:4ga qarang). Xudo oqsoqollarga suruv uchun javobgarlik beradi, shuning uchun, ular o‘z suruvlari uchun shaxsan bit-tama-bitta, birgalikda yig‘ilib va umumiy yig‘ilishda ibodat qilishlari kerak.

Shaxsan men xizmat qilayotgan mahalliy jamoatim a‘zolarini har birini sevaman. Har kuni ertalab bir necha varoqdan iborat jamoatimiz a‘zolari ro‘yxatidagilar uchun nomma-nom ibodat qilib chiqaman.

Jamoatimizdagi oqsoqollar uchrashuvida birgalikda, bizning oqsoqollarimiz jamoat a'zolari uchun ibodat qilishga salmoqli vaqt ajratishadi – balki, uch soatlik yig'ilishning bir soatini ibodatga sarflashadi. Biz jamoatimiz a'zolari ro'yxatidagi taqsimlab olingan qismlar bo'ylab, nomma-nom ibodat qilib chiqamiz. Keyin, ma'lum bir qiyinchilikdagi qo'zilar uchun ibodat qilamiz.

Jamoatimizning umumiy yig'ilishlarida oqsoqollar olqishlash ibodatlari orqali Xudoni ulug'lash tarzini olib borishadi.

Ular minnatdorchilik ibodatlari orqali Xudoning sadoqatini ko'rish namunasini o'rnatishadi, ayniqsa, oqsoqollar Xudoning ishini ko'ra olish mumkin bo'lgan katta lavozimda xizmat qilayotganlari uchun bunday imkoniyatga egalar. Oqsoqollar ibodatga olgan javoblarni kuzatishlari va ularni jamoatga ma'lum qilishlari kerak.

Ular, shu bilan birga, umumiy yig'ilishda gunohlariga iqror bo'lish ibodatlari orqali boshqalarga namuna bo'lishadi. Ular gunohga iqror bo'lish orqali jamoatda Xudoning muqaddasligini tan olishga yordam beradilar. Ular imonda mustahkam

turgan yoki turmaganliklarini ko'rish uchun yakka holda va omma oldida o'zlarini tekshirib turishlari lozim (2-Kor. 13:5). Ularning o'z yuraklarini shu tarzda tekshirishlari jamoatga Xudoning shafqati va inoyatini qadrlashga sababchi bo'lishi kerak va shu bilan birga, ular jamoatni Xudo oldida o'z gunohlariga iqror bo'lib, ularni tavba qilishga undaydilar.

Shafolat ibodati, ehtimol, oqsoqolning eng muhim xizmati hisoblanadi. Odamlarga Xudo nomidan gapirish uchun, oqsoqollar Xudoga odamlar nomidan gapirishlari kerak. Ular Xudo Ruhining hayot beruvchi ishidan boshqa o'zlarining samarasiz hatti-harakatlaridan ehtiyot bo'lishlari kerak. Oqsoqollar ibodat qiladilar va ibodat qilishlari kerak.

OQSOQOLLAR VA'Z AYTADILAR VA O'RGATADILAR

Oqsoqollarning boshqa asosiy xizmati Xudo Kalomini jamoatga va'z qilish va o'rgatishdir.¹⁸ Oqsoqollarning xususiyatlaridan biri ta'lim bersh qobiliyatidir (1-Tim. 3:2ga qarang). Oqsoqollar jamoat yig'ilishlarini olib borish orqali ta'lim berishadi. Ular e'lonlar berish yoki Muqaddas

Kitobni o‘qish orqali ham ta’lim beradilar. Ular omma oldida ovoz chiqarib ibodat qilish orqali ta’lim beradilar. Albatta, yakshanba maktablari darslarini (bolalar uchunmi yoki kattalar uchunmi – farqi yo‘q) olib borish orqali ham ta’lim beradilar.

Oqsoqollar Xudo Kalomini va’z qilish orqali ta’lim beradilar. Faqatgina shu xizmat bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan oqsoqollar mahalliy jamoat uchun ajoyib sovg‘adirlar. Lekin, oqsoqolning asosiy xizmati ta’lim berish bo‘lishi uchun u faqatgina shu xizmat bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan bo‘lishi yoki asosiy va’z aytuvchi cho‘pon bo‘lishi shart emas. Oqsoqollar o‘zlarining boshqalar bilan olib boradigan yakkama-yakka suhbatlarida hamda o‘z yozuvlari orqali ham ta’lim beradilar. Ular Muqaddas Kitobni o‘rgatish kichik guruhlarida va xushxabarchilik faoliyatlarida ta’lim beradilar.

Mana shuning uchun ham, oqsoqollar o‘zlarini Xudo Kalomini bilishga bag‘ishlagan odamlar bo‘lishlari kerak. Zabur 1, 18 va 118-Sanolar oqsoqollar alohida o‘zlari yoki birgalikda o‘rganishlari uchun yaxshi manbadir. Jamoat a‘zolari yaxshi himoyalangan, tayyorlangan va qurollangan bo‘lishlari

uchun oqsoqollar Muqaddas Kitobdagi va hayotdagi muhim mavzularni yaxshi anglashga va to'g'ri tushunchaga ega bo'lishga o'zlarini bag'ishlashlari kerak.

Oqsoqollar ta'lim berar ekan, ular Xushxabar tashqaridan ularning quloqlari va yuraklariga qay tarzda kirgan va ularga najot bergan holatni o'zlarida namoyon etishadi. Oqsoqollar jamoat a'zolarining quloqlariga ham Xudoning haqiqatini gapirishadi, keyin esa ular jamoatdagi erkak va ayollarning yuraklari tomon ushbu haqiqatni yetkazish maqsadida Xudoning Ruhi qolgan yo'lni bosib o'tishi uchun ibodat qilishadi.

Oqsoqollar Xudoning Kalomini o'rgatishadi va va'z qilishadi.

OQSOQOLLAR CHO'PONLIK QILISHADI

Oqsoqollar nima ish qilishadi degan savolga eng keng qamrovli javob bu "cho'ponlik qilish"dir (Havoriylar 20:28; 1-But. 5:2). Yangi Ahdda yunon tilida *cho'ponlik qilish*ning ham ot shakli, ham fe'l shakli bor. Cho'pon (ot), cho'ponlik qiladi (fe'l). Muqaddas Kitobda bu bilish, boqish, yetaklash va himoya qilishni bildiradi.¹⁹ Qaysidir darajada, har

bir masihiy choʻponlik qilishda ishtirok etadi (Rim. 15:14ga qarang). Baʼzilar choʻponlik qiluvchi sifatida tan olingan va ushbu xizmat uchun alohida ajratilganlar. Bular jamoatdagi oqsoqollardir.

Choʻponlik qilish sizga tegishli boʻlmagan, lekin sizni ustidan javobgar etib tayinlangan odamlar uchun gʻamxoʻrlik qilishdir (Luqo 12:35–48ga qarang). Kimdir jamoatga qoʻshilganda bu nimani anglatishi haqida fikr yuriting. Agar siz oqsoqol boʻlsangiz, siz oʻsha inson Xudo tomonidan qimmatbaho qon evaziga sotib olinganligini bilasiz, lekin u sizning javobgarligingiz ostida boʻladi. Ibroniylarga 13:17da yozilganidek, siz bu kabi shaxslar uchun Xudoga hisobot berasizlar.

Shuning uchun, oqsoqollar ushbu jamoat aʼzolari bilan birga quvonishadi va ular bilan birga yigʻilashadi. Oqsoqollar kimdir ishidan ayrilganda yoki munosabatlarida qiyinchilikka duch kelganda oʻzlari gʻamxoʻrlik qilayotgan jamoat aʼzolari uchun namuna boʻladilar. Agarda birona imonli Xudoni yoki Uning Kalomini notoʻgʻri tushunganda, oqsoqollar bu vaziyatdan qoniqish hosil qilmaydilar va oʻzlarini bunday imonlilarni parvarish qilishga bagʻishlaydilar.

Cho‘ponlik qilish, ota-onalik qilish singari, sabr-toqat talab etadi. Bu turdagi mehnat bittagina va’z bilan yoki bir kunda amalga oshmaydi. Ba’zan, Xudo bitta va’z yoki jiddiy suhbat orqali ham keskin o‘zgarishlar olib kelishi mumkin. Lekin, oqsoqollik ishi, odatda, suruvni yam-yashil o‘tloqlar sari yetaklab borish kabi takroriy va har kuni qaytariladigan ishdir. Bu har kuni ovqat pishirish yoki bolalarni maktabga olib borishga o‘xshaydi.

Jamoat fe‘l-atvorini shakllantirishdagi eng muhim ishlardan ba’zilari bu oqsoqollar tomonidan bajariladigan kichik, sekin va takroriy sevgi amallari va xizmatlar: yakshanba maktabidagi darsni yana o‘rgatish; ibodatni yana olib borish; bir xil savolga o‘n marotaba yoki yuz marotaba javob berishdan iboratdir.

Cho‘ponlik qilish, shu bilan birga, tashabbusni ham talab etadi. Oqsoqol, shunchaki, odamlar qachon kelib unga savollar yoki muammolar bilan murojaat qilishini kutadigan, passiv bo‘lmasligi kerak. Oqsoqollar ularga shunday savollarni berishi kerak: “Va’z senga qanday ta’sir qildi?” “Birgalikda tushlik qilishni xohlaysanmi?” “U yoki bu odam

qanday yuribdi, xabaring bormi?” “Muqaddas Kitobda Muqaddas Ruhning ishi haqida nima deyilganini bilasanmi?” “Bu haqda o‘qib ko‘rganmisan?” “Men Muqaddas Kitobdagi ushbu parcha ustida ishlayotganimda menikiga bir kirib o‘tasanmi?” “Men bilan birga konspektlarimni ko‘rib chiqishni va ular bo‘yicha fikr bildirishni xohlaysanmi? Ularni yanada yaxshilashimga yordam bergan bo‘larding.” “Otangni ahvoli qanday, xotining yaxshimi, hali imonga kelmagan kasbdoshing-chi?” Bu va bunga o‘xshash minglab boshqa tashabbuslar Xudo tomonidan o‘zganing oqsoqollik parvarishida bo‘lgan qo‘zini shakllantirish, qo‘llab-quvvatlash, unga dalda berish, uni tuzatish yoki yetaklash maqsadida ishlatilishi mumkin.

OQSOQOLLAR O‘ZLARI VA OILALARINI EHTIYOT QILADILAR

Ba‘zan hatto eng yaxshi oqsoqollar ham e‘tibordan chetda qoldiradigan vazifa bu o‘zlarini ehtiyot qilishdir. Lekin, Pavlus Efeslik oqsoqollarga “O‘zlar-ingizni ehtiyot qilinglar” (Havoriylar 20:28) deb aytadi.

Oqsoqol birodarim, har kuni Xudoning Kalomini o‘rganish va ibodat qilishga sarflagan vaqting albatta o‘zing uchun, lekin bu sening mahalliy jamoating hayotida Xudo senga bergan rolning bir qismi hamdir. Bu xuddi samolyotda favqulotda holatlar yuz berganda, kislorod niqobini avval o‘zingizga kiyishni, keyin esa, boshqalarga yordam berishni o‘rgatayotgan parvoz xizmatchisiga o‘xshaydi. Shuning uchun, o‘zingizga e’tibor qarating. Nafas olayotganingizga ishonch hosil qiling! Keyin boshqalarga nafas olishga yordam bering.

Men ba’zan cho‘pon bo‘lmaslik uchun yetarlicha yaxshi imonli ekanligimga amin emasman, deb hazillashaman. Men nazarda tutgan narsa shuki, doimiy ritmda ta’lim berish, tayyorlanish va shu odamlar uchun ibodat qilish va ularni sevish mas’uliyatini olish – bularning bari men uchun foydali kutishlardir. Men bularni o‘z bo‘ynimga olishni yoqtiraman. Bu menga faqatgina boshqalarga emas, o‘zim uchun ham foydali bo‘lgan narsalarni qilishimga yordam beradi. Aksincha, men uchun foydali bo‘lgan narsa, boshqalarga ham foydali bo‘lishni davom ettirishimga yordam beradi.

Boshqa narsalar orasida bu shuni anglatadiki, mening oilam mening jamoatdagi rolim sababli qurbonliklarga tayyor bo'lishi kerak, lekin, shu bilan birga, mening ular (oilam) uchun ham alohida o'ziga xos javobgarligim borligini unutmasligim kerak. Bu jamoat boshqa cho'pon yoki oqsoqollarga ega bo'lishi mumkin, lekin mening bolalarim va xotinim boshqa ota yoki erga ega bo'lolmaydilar. Butun hayotim davomida ular uchun takrorlanmas rolim bor. Bu javobgarlikni bajarolmagan ko'pgina paytlarda, men buni hech qachon rad etmaganman. Men buni har doim tan olganman va bu mening xotinim yoki oilam jamoat uchun qilayotgan qurbonliklar men qilishga yetaklayotgan qurbonliklar ekanligini xotinim tushunishi ustida qattiq ishlaganimni anglatadi – zero, men ham nazariyada, ham amalda oilamni xazinadek asrashim kerak. Men uydagi sevimli yetakchiligimga nisbatan ishonch yaratish ustida ishlayman.

OQSOQOLLAR QAROV (NAZORAT) NI AMALGA OSHIRADILAR

Oqsoqollar o'zlarini ehtiyot qilgandan keyin, boshqalarga ko'z-quloq bo'lish orqali ularga

g'amxo'rlik qila oladilar. Pavlusning Efeslik oqsoqollarga aytgan so'zlaridan ibrat olish mumkin: "O'zlarizingni ehtiyot qilinglar, suruvni ham ehtiyot qilinglar. Chunki Muqaddas Ruh ularni sizning qar-amog'ingizga bergan. Xudoning jamoatiga cho'pon bo'linglar. U bu jamoatni O'zining O'g'li qoni eva-ziga sotib olgan" (Havoriyalar 20:28).

Oqsoqollar har xil yo'llar bilan qarovni amalga oshiradilar. Ular buni jamoat homiylik qiladigan xushxabarchilik ishi bilan bog'liq ravishda amalga oshiradilar. Ular elchilik xizmati bilan ham shug'ullanadilar va ehtimol ular hatto elchilar (Osmon Shohligi elchilari) yashaydigan va xizmat qiladigan joylarga tashrif buyuradilar.

Oqsoqollar jamoat a'zolari bilan ularning uylarida va ba'zan ular ishlaydigan joylarda uchrashib ham qarovni amalga oshiradilar. Ular o'z jamoat a'zolari hayoti va ta'limoti haqida ga'mxo'rlik qiladilar. Axir, ularda jamoat a'zolarining manfaati uchun amalga oshiriladigan hokimiyat bor.

Oqsoqollar jamoatga a'zo bo'lish istagini bildirgan shaxslarni tekshirish va ularni jamoatga tavsiya qilish orqali nazoratni amalga oshiradi. Ba'zan, bu

birovning jamoatga qo‘shilish jarayonini sekinlashtirishni anglatadi, chunki ular bu shaxsga nimanidir yaxshiroq anglashga, masalalarni hal qilishga yoki uning hayotidagi ba’zi sohalarni tartibga keltirishga yordam berishni xohlashadi.

Oqsoqollar birona jamoat a’zosi o‘z gunohini Masihdan ko‘ra ko‘proq sevishtirishga qaror qilganda, uni a’zolikdan chiqarish uchun jamoatni yetaklash orqali nazoratni amalga oshiradi.

Oqsoqollar har yili jamoat budjetini tuzish va jamoatga taqdim etish orqali nazoratni amalga oshiradilar.

Ular jamoat a’zolari hayotida cho‘ponlik qilish qiyin bo‘lgan holatlarda bir-birlariga maslahat berishadi.

Ular birgalikda ibodat qilishadi.

Ular doimiy ravishda Xudo oqsoqollar yoki diakonlar sifatida yetishtirayotgan shaxslarni qidirishadi.

Ular qiyinchilikda azoblanayotgan yoki kurashayotgan qo‘zilarni uchrashishga taklif etib, sinov va qiyinchiliklarda yoki kasallikda bo‘lganlar uchun birgalikda ibodat qilishadi yoki xushxabarni

chet mamlakatlarga yetkazish xohishida bo'lganlarga maslahatlar berishadi.

Shu va boshqa yo'llar orqali oqsoqollar Butrusning quyidagi saboqlarini bajarishadi: “Nazoratingizdagi Xudoning suruvini yaxshi boqinglar. Bu xizmatni majburiyat yuzasidan emas, balki chin ko'ngildan, Xudoga manzur tarzda bajaringlar” (1-But. 5:2).

OQSOQOLLAR BOSHQALARGA YAXSHI NAMUNA BO'LADILAR

Yaxshi oqsoqol bo'lishning eng yaxshi yo'llaridan biri bu suruvga yaxshi namuna bo'lishdir. Pavlusning Titusga maktubida oqsoqolga doir ta'rifi haqida fikr yuriting va ular boshqalar uchun qanday o'rnak bo'la olishiga e'tibor bering:

Zero, jamoat yetakchisi Xudoning xonadonini boshqaruvchi sifatida kamchiliksiz bo'lishi lozim, ya'ni u takabbur, jahldor, mayxo'r, zo'ravon yoki pulparast emas, balki mehmondo'st, yaxshilikni sevadigan, vazmin, odil, oq ko'ngil va nafsini tiygan odam bo'lsin. Haqiqatga o'rgatilgan,

Xushxabar aqidalariga qattiq rioya qiladigan inson bo'lsin. Shunda u boshqalarga ham sog'lom ta'limot bilan nasihat qila oladi, qarshilik qiluvchilarni esa fosh eta oladi (Titus 1:7–9).

Oqsoqollar va cho'ponlar nima uchun bunday xususiyatlarga ega bo'lishlari talab etiladi? Chunki, nazorat (qarov) ning bir qismi bu boshqalarga yo'l korsatishdir. Ular shogirdlarga o'rnak bo'ladilar. Yo'l-yo'riqlar berish orqali qanday yo'l-yo'riq berish kerakligini o'rgatadilar. Ishonchli (sadoqatli) bo'lish orqali ishonchli bo'lish qanday bo'lishini ko'rsatadilar. Ular Butrusning suruvga namuna bo'lish ko'rsatmasiga itoat etadilar (1 But. 5:3).

OQSOQOLLAR OQSOQOLLARNI YETISHTIRISHADI

Va nihoyat, oqsoqollar boshqa oqsoqollarni yetishtirish orqali o'zlarining o'rinlariga xizmatchilar zahirasini yaratishadi. Ma'lum darajada bu “shogird orttirish” topshirig'ining bir qismi xolos. Ular ta'lim berishadi va amalda o'rgatishadi, toki boshqalar ham

yetuklikka erishib, bunga javoban boshqalarga ta'lim berishsin va amalda o'rgatishsin.

Pavlus Timo'tiyga qanday ko'rsatma berishiga e'tibor bering: "Sen ko'p shohidlar huzurida Xushxabar haqida ta'lim berganimni eshitgansan. Endi bu ta'limotni boshqalarga ham o'rgatishga qobiliyati bor, ishonchli odamlarga topshirgin" (2-Tim. 2:2). Pavlus (1-avlod) Timo'tiyga (2-avlod) ta'lim beradi. U Timo'tiy ushbu saboqlarni ishonchli odamlarga (3-avlod) o'rgatishini, o'sha ishonchi odamlar esa, boshqalarga (4-avlod) ham o'rgatishlarini xohlaydi. Bizlardan qanchamizda Pavlusga o'xshab xayolimizda ruhiy chevaralarimiz bor! Qanchalik ko'p odamlar o'sib borib, oqsoqollar bo'lib yetishgan jamoat shuncha sog'lom va qudratli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, oqsoqollar o'z suruvlarini bilishlari va ularga xizmat qilishlari lozim. Xudojo'y oqsoqollar o'z suruvini yetaklaydi va ularni boqadi. Ular o'z qo'zilarini yaxshi boshqarish va ehtiyotkorlik bilan himoya qilishga o'zlarini bag'ishlaydilar. Ular rad etilgan va tahqirlanganlarni izlab topadilar. Ular o'sha qobiliyatlilarni boshqalarga ta'lim berishga o'rgatadilar. Bularning barini bajarayotganda

ular Masihning bironta qo'zisini halok bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan Yaxshi Cho'ponning namunasiga ergashadilar.

5-BOB

OQSOQOLLARNING JAMOAT
SHTATI XIZMATCHILARI,
DIAKONLAR VA
“CHO’PON” BILAN
O’ZARO ALOQASI

Agar oqsoqollar asosan ta’lim berish va suruvni nazorat qilish uchun javobgar bo‘lsalar, ular jamoat shtati xizmatchilari, diakonlar va biron bir kichik yoki asosiy cho‘pon bilan qay tarzda munosabatga kirishishlari kerak? O‘ylaymanki, bu rollarning har birini farqlash va kim nima uchun javobgarligini bilish – biz uchun muhim. Qaysi turdagi ishlar va qaysi turdagi qaror qabul qilish vakolatlari oqsoqollarga tegishli? Jamoat shtati xizmatchilari-chi? Diakonlarga-chi? Butun jamoatga-chi?

OQSOQOLLAR VA JAMOAT SHTATI XIZMATCHILARINING O'ZARO ALOQASI

Ko'pgina zamonaviy jamoatlar oqsoqollarni jamoat shtati xizmatchilari bilan adashtirishadi. Ba'zi jamoat shtati xizmatchilari cho'ponlardir. Ba'zilari esa – yo'q. Har ikkala holda ham, jamoat shtati xizmatchilari to'liq yoki to'liq bo'lmagan ish vaqti mobaynida jamoatga xizmat qilish uchun alohida ajratilgan odamlardir. Odatda ular jamoatda har kuni nima sodir bo'layotganidan to'g'ridan-to'g'ri xabar-dor bo'ladigan shaxslardir. Ular ma'lum darajadagi xudojo'ylik va yetuklikka ega bo'lishlari kerak, aks holda, ular hech qachon bu xizmatga qo'yilmagan bo'lar edilar. Ularning orasidagi cho'ponlar seminar-iyada o'qigan bo'lishlari mumkin, lekin o'qimagan bo'lishlari ham mumkin.

Agar jamoat shtatidagi xizmatchining “cho'pon” degan unvoni bo'lsa, u bir vaqtning o'zida oqsoqol hamdir. Har bir cho'pon oqsoqoldir, chunki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Muqaddas Kitobda bu so'zlar bir-biri bilan o'zaro almashgan holda ishlatiladi. Shuning uchun, mening jamo-atimda oqsoqol bo'lmagan biror kishiga, aytaylik,

“yoshlar cho‘poni” unvoni berilmaydi. Jamoatimiz tomonidan tan olingan yigirma to‘rtta oqsoqoldan faqatgina oltitasi jamoat shtatiga ishga olingan.

Shunday bo‘lsada, cho‘ponlik ishi bilan shug‘ullanayotgan, lekin hali oqsoqollar sifatida tasdiqlanmagan bir necha odamlarimiz, asosan, yoshlar – bor. Ushbu “cho‘ponlik xizmati yordamchilari” ta’lim berishdan boshlab to uyma-uy yurishlarga cha hamma narsada bizlarga katta yordam beradilar. Bizda bolalar xizmatini olib boradigan bitta xudojo‘y ayol ham bor, shu bilan birga, umumiy ma’muriy masalalar shtati xizmatchilari ham bor.

Unday bo‘lsa, oqsoqollar va jamoat shtati xizmatchilari o‘zaro aloqaga qanday kirishadilar. Oqsoqollar birgalikda butun jamoat ustidan nazoratni amalga oshirishlari sababli, nazoratga doir kattaroq qarorlarni qabul qilish vakolati ularda qoladi. Shtat xizmatchilari esa, ushbu qarorlarning ijrosiga mas’uldirlar. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, har birlariga tegishli qarorlar bo‘yicha ko‘rsatmalardan kelib chiqib biror-bir choralalar ko‘rilishi uchun, oqsoqollar, bir jamoa sifatida, odatda, shtatdagi oqsoqollarga tayanishadi. Bu ishni

amalgga oshirish uchun shtat oqsoqollari ixtiyorida axir butun bir hafta bor.

OQSOQOLLAR VA DIAKONLARNING O'ZARO ALOQASI

Amalda (ta'limotda ham bo'lishi mumkin) ko'p jamoatlar diakon va oqsoqolning Yangi Ahddagi rollarini ham adashtirishadi.

Agar 1-Timo'tiy 3-bobdagi oqsoqol va diakonlarning xususiyatlarini taqqoslasangiz, eng ko'zga tashlanadiganlari farqlar emas, balki o'xshashliklardir. Oqsoqollar ham, diakonlar ham obro'li, benuqson, ishonchli, bir xotinli, ichkilikka berilmagan, vazmin va saxiy shaxslar bo'lishlari kerak. Haqiqatdan ham bu ikki ro'yxat shu darajada o'xshashki, ilk masihiylar yetakchilarning bu ikki alohida institutini aniq farqlay olishlari kerakligi ularni hayratga solgan bo'lsa kerak. Bu ikki ro'yxat o'rtasidagi asosiy farq – bu oqsoqol “ta'lim berishga qobiliyatli” bo'lishi kerakligidir.

Biz bu farqning ildizini Havoriylar 6-bobda ko'rib chiqdik. Havoriylar fahmlashadiki, “Xudo kalomini va'z qilishni bir chetga qoldirib, ozuqa

tarqatish bilan ovora bo‘lish to‘g‘ri emas (2-oyat). Ular o‘zlarini “ibodatga va Xudoning kalomi xizmatiga” bag‘ishlashni xohlagandilar (4-oyat). Tanlangan yetti kishi esa, ozuqa tarqatish xizmati uchun ajratiladilar. Shunga o‘xshab, Xudoning Kalomi oqsoqollarning Kalomni ommaga yetkazishda ham, o‘z hayotlari orqali ham asosiy javobgarligidir. Diakonlar esa, jamoat hayotining amaliy sohalariga: ma‘muriy masalalar, jamoat binosining ishga yaroqliligini saqlash, moddiy muhtojlikdagi jamoat a‘zolariga g‘amxo‘rlik qilish xizmatiga bag‘ishlanishlari kerak – bularning bari jamoat birligini va Kalom xizmatini qo‘llab-quvvatlash uchun qilinadi.

Oqsoqollar va‘z va ibodat diakonlaridir. Diakonlar esa, amaliy va moddiy masalalar diakonlaridirlar.

Shuning uchun, diakonlar alohida kuch bloki yoki qonun loyihalari uzatiladigan qonunchilikning ikkinchi palatasi bo‘lmasliklari kerak. Agar oqsoqollar “Pittsburgga boramiz” deyishsa, diakonlar kelib “Yo‘q, keling Filadelfiyaga boramiz” deyolmaydilar. Ular kelib qonuniy ravishda “Motorimiz Pittsburggacha yetib borishimizga imkon

bermaydi. Balki, yana bir marta o‘ylab ko‘rarmiz” deyishlari mumkin. Bu juda foydali bo‘ladi. Lekin, umuman olganda, ularning ishi oqsoqollar tomonidan belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga ko‘maklashishdir.

Shunday qilib, oqsoqol rolini diakon rolidan farqlash ko‘pgina jamoatlar uchun katta foyda beradi.

OQSOQOLLAR VA “CHO‘PONLAR”NING O‘ZARO ALOQASI

Muqaddas Kitob oqsoqollar orasida katta cho‘pon bo‘lishi kerakligi haqida o‘rgatadimi? Bu savolga javob “Yo‘q, to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas.” Buni aytib, men, asosan, omma oldidagi o‘qituvchi bo‘lgan odamning oqsoqollar orasidagi o‘zgacha rolini Muqaddas Kitobdan aniqlay olamiz, deb hisoblayman. Sizga bu rol haqida Yangi Ahdda so‘z yuritilgan to‘rtta qarashlarni taqdim etishga ijozat bering:

1. Ba‘zi bir oqsoqollar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishgan (Timo‘tiy va Titus kabi), boshqalari esa, bunday emas. Shuning uchun, Timo‘tiy jamoatga tashqaridan

kelgan, boshqalar esa, o'zining mahalliy jamoatlari ichida tayinlanishgan.

2. Ba'zi oqsoqollar to'liq suruv tomonidan ta'minlanishgan (1- Tim. 5:17–18; Filip. 4:15–18ga qarang), boshqalari esa, boshqa ishda ishlashgan. Titus Kritdagi jamoatlar uchun tayinlagan oqsoqollarning har biri to'liq jamoat tomonidan ta'minlanganligi ehtimoldan yiroqdir.
3. Pavlus jamoatga doir ko'rsatmalarni faqat Timo'tiyga yozgan, shunga qaramay, Havoriylar kitobidan bilamizki, Efes jamoatida boshqa oqsoqollar ham bo'lgan. Demak, Timo'tiy ular orasida takrorlanmas alohida o'ringa ega bo'lgan.
4. Va nihoyat, Vahiy 2- va 3-boblardagi Isoning yettita jamoatga atalgan maktublari ushbu har bir jamoatning xabarchisiga (birlikda) qarata yozilgan.

Bularning hech biri bugungi kundagi jamoatlar uchun majburiy buyruqlar emas. Lekin, ular bizning bitta oqsoqolni alohida ajratib, uni moddiy

ta'minlab va unga jamoatda asosan ta'lim berish vazifasini topshirish amalimizga mos tasvirlardir. U sadoqat bilan ta'lim berar ekan, tabiiy ravishda obro'ga erishadi va natijada bu uning oqsoqollar orasida jamoat yo'nalishini belgilash huquqiga ega bo'lgan "tenglar orasidagi birinchi" rolini qo'lga kiritishiga olib keladi. Oqsoqollar uni to'liq shu ishni bajarish uchun ajratishar ekan, ular shunday rahbarlikni izlashlari kerak.

Shunday bo'lsada, va'zxon yoki cho'pon, aslida, oqsoqollardan biri xolos. Ularning bari Muqaddas Ruh tayinlagan nazorat qilish vazifasiga egalar, shunga o'xshab, u (va'zxon yoki cho'pon) ulardek faqatgina bitta ovozga ega.

Bunday *ko'plik* yetakchilikni mustahkam ildizli va o'zgarmas qiladi hamda katta cho'pon xizmatni tark etganda yetakchilikning davomiyligini saqlab qolishga imkon beradi. Bu o'z jamoati a'zolarini ruhiy o'stirishga ko'proq javobgarlikni o'z bo'yniga olishga undaydi va jamoat uning ishchilariga kamroq bog'liq bo'lishiga yordam beradi. Oqsoqollar ko'pligi, boshqacha qilib aytganda, ustozlik qilish va yetakchilarni yetishtirish chaqirig'idan boshqa narsa emas.

Katta cho‘pon sifatida aytishim mumkinki, cho‘ponlik xizmatimdagi, ehtimol, eng foydali yagona narsa bu boshqa oqsoqollarni tan olish bo‘lib kelgan. Ularning xizmati katta foyda berib kelgan. Ular mening in‘omlarimni to‘ldirishadi, mendagi kamchiliklarimni to‘ldirishadi, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishimga ko‘maklashishadi va qilingan qarorlar bo‘yicha noo‘rin tanqidlarga uchraganimda, jamoat ichida meni qo‘llab-quvvatlaydigan asosni tashkil etishadi. Jamoatim ham bu odamlardan juda katta foyda ko‘rishgan, chunki ular har bir jamoat a‘zoriga cho‘ponlik parvarishini ko‘rsatishgan.

OQSOQOLLARNING JAMOATGA ALOQASI

Hozirgacha biz oqsoqollar va diakonlarning ishlarini va oqsoqollar tananing (jamoat) har xil qismlari bilan qanday aloqadorlikka ega ekanliklarini koʻrib chiqdik. Lekin, kongregatsionalizm (jamoatchilik) nuqtai nazaridan oqsoqol yetakchiligi aynan qanday ahamiyatga ega?²⁰

KONGREGATSIONALIZM (JAMOATCHILIK) NIMA?

Keling kongregatsionalizm nima ekanligiga javob berishdan boshlaymiz. Kongregatsionalizm – bu mahalliy jamoatda muhim masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiluvchi oxirgi instansiya Rim yoki Konstantinopol yoki Washington emasligi

tushunchasidir. U qandaydir xalqaro institut yoki milliy assambleya, konferensiya yoki konvensiya ham emas. U denominatsiya prezidenti yoki ishonchli vakillar kengashi raisi ham emas. U mintaqaviy kengash yoki cho‘ponlik assotsiatsiyasi ham emas. U mahalliy jamoat ichidagi oqsoqollar guruhi yoki cho‘pon ham emas. Mahalliy jamoat hayotiga doir masalalar yuzasidan qaror chiqaruvchi oxirgi instansiya mahalliy jamoatning o‘zidir.

Bu ta’limot va tartib-intizom masalalari hamda jamoatga a’zolari qabul qilish va ular o‘rtasida farqlarni belgilash masalalarida Yangi Ahd guvohligiga asoslanishni bidiradi.

Qarama-qarshiliklar. Matto 18:15–17da Iso birodarlar orasidagi qarama-qarshiliklarni qanday hal qilish haqida gapiradi. Oxirgi hukm chiqaruvchi instansiya nima ekanligiga e’tibor bering. Yepiskop, presviter (oqsoqol) yoki cho‘ponlar emas. U “imonicilar jamoatidir” (17-oyat). Butun jamoat qaror chiqaruvchi oxirgi instansiya bo‘lishi kerak.

Ta’limot. Galatyaliklarga 1:6–9da, Pavlus hali imonda yosh masihiy jamoatlarni agar biror kishi Galatyaliklarga ular qabul qilgan xushxabardan

boshqa bir “xushxabar” keltirsa, hatto farishtalar va havoriylar bo‘ladimi – farqi yo‘q, ularni (hatto o‘zini ham!) hukm qilishga chaqirmoqda. U 2-Timo‘tiyga 4:3da Timo‘tiy va Efesdagi jamoatga soxta ustozlarga nisbatan qanday chora ko‘rish haqida maslahat berganda, bu haqda yana bir marta gapiradi.

Intizomiy jazo. 1-Korinfliklarga 5-bobda Pavlus butun Korinf jamoatiga (faqatgina oqsoqollarga emas) murojaat qilib, biror kishi e’tirof etgan imoniga to‘g‘ri kelmaydigan tarzda yashayotgan bo‘lsa, uni jamoatdan chetlatishga chaqiradi. Muqaddas Kitob bo‘yicha jamoatdagi intizomiy jazo masalalarida butun jamoat hal qiluvchi qarorni qabul qilish vakolatiga ega.

A’zolik. 2-Korinfliklarga 2:6–8da Pavlus oldin biror kishini a’zolikdan chetlatishni ko‘pchilik bo‘lib hal qilishga chaqirgan bo‘lsa, endi bu joyda ulardan o‘sha odamni qayta a’zolikka tiklashni so‘ramoqda: “Ammo xafa qilgan odamga ko‘pchilik tomonidan berilgan jazo yetarli. Endi bo‘lsa, uni kechirib, tasalli beringlar, toki u haddan ortiq qayg‘urib, tushkunlikka tushmasin. Sizlardan o‘tinaman, unga bo‘lgan mehr–muhabbatingizni ko‘rsating.” Jamoat a’zoli

masalalarida, jamoat bir butun organizm sifatida qaror chiqaruvchi oxirgi instansiya bo'lishi kerak.

Jamoat yetakchilik, shtat xizmatchilari va budjetga doir qaror qabul qilishlarda qanchalik chuqur kirib borishi bu fahm-farosatlilik va uzoqni ko'ra bilish masalasidir. Na xizmatga tayinlash kengashi va na ishonchli vakillar haqida Yangi Ahd varoqlarida hech nima yozilmagan. Moliya kengashlari yoki kichik guruh yetakchilari jamoalari haqida ham hech narsa topa olmaysiz. Shunga qaramay, Muqaddas Kitobning mukammalligiga ishonish bunday tuzilmalarni rad etmaydi; u shunchaki ularning hokimiyati aloqadorligini belgilab beradi.

Shuni ham unutmangki, jamoat har doim ham haq bo'lavermaydi. Pavlus Timo'tiyga, ya'ni o'z shogirdi va Efes jamoati cho'poniga yozganda u keladigan yomon kunlarni tasvirlaydi "Chunki shunday vaqt keladiki, odamlar sog'lom ta'limotga toqat qilmaydigan bo'ladilar, ular atrofiga o'zlariga mos, quloqlariga yoqimli so'zlar aytadigan muallimlar to'playdilar" (2 Tim. 4:3). Kongregatsionalizm (jamoatchilik) kalomga asoslanadi, lekin jamoat benuqson emas. Tarixda Jonatan Edvardsni lavozimidan

bo'shatgan jamoatni misol qilib olishimiz mumkin. Ularda shunday vakolatga ega bo'lish uchun barcha kalomiy huquqlari bor edi, lekin, o'ylaymanki, ular bu vakolatdan Edwardsni ishdan bo'shatish uchun foydalanib noto'g'ri ish qildilar. Hatto Xudo tomonidan o'rnatilgan vakolatli hokimiyat bu buzuq dunyoda xatolikka yo'l qo'yadi.

YETAKCHILARGA ISHONISH VA ITOAT ETISH

Shunday qilib, kongregatsionalizm (jamoatchilik) qarorlar qabul qilishda jamoat oxirgi instansiya ekanligini bildirsa, qay tarzda biz buni Ibroniylarga 13:17 kabi oyatlar bilan yonma-yon qo'ya olamiz? “Jamoatdagi boshliqlaringizga quloq solinglar, aytganlarini qilinglar. Axir, ular imon yo'lida sizlarga posbonlik qiladilar, Xudoning oldida sizlar uchun hisobot beradilar. Ularga itoat qilsangiz, ular o'z ishini xursandchilik bilan bajaradilar, bo'lmasa, o'lgan kunidan qiladilar. Bundan sizga nima foyda bo'ladi?!” Biz “bo'ysuninglar” va “itoat etinglar” kabi so'zlarni ishlatishga o'rganmaganmiz, lekin Yangi Ahdda bu so'zlarni jamiyatdagi va ishdagi

odamlarga nisbatan, uyimizda, turmushimizda va jamoatda qo'llaymiz. Yetakchilarimizga bo'ysunish va ularga ishonish bizning tomondan ma'lum darajada ularga nisbatan ishonchni talab etadi.

Ishonchga loyiq bo'lish kerakligi har doim aytib kelingan. Bu nimani bildirishini yaxshi tushunaman. Lekin, bunday nuqtai nazarning ko'pi bilan yarmi to'g'ri. Biz ushbu hayotda o'zimiz kabi mukammal bo'lmagan odamlarga, oila a'zolarimiz yoki do'stlarimiz bo'ladimi, xo'jayinlarimiz yoki davlat amaldorlari bo'ladimi, yoki hatto jamoatdagi yetakchilarimiz bo'ladimi – farqi yo'q, ularga ishonch bildirishga chaqirilganmiz, lekin bu turdagi ishonchga hech qachon to'laligicha loyiq bo'lish mumkin emas. U sovg'a sifatida – imon sovg'asi sifatida, ya'ni Xudoning bizga atagan in'omlari sifatida, biz ko'rgan odamlarimizdan ko'proq berishga qodir bo'lgan Xudoga nisbatan ishonch orqali berilishi kerak. Jamoatda ishonchli bo'lmagan yetakchilarning bo'lishi yoki ishonishga qodir bo'lmagan a'zolarining bo'lishi jamoatdagi jiddiy yetishmovchilikdir.

Siz jamoat a'zosi sifatida yo ularga ishonishingiz kerak, yoki ularning o'rnini egallashingiz kerak.

Lekin, ularni tan olaman deb, ularga ergashmasligingiz bu noto'g'ri. Agar siz oqsoqollarning biror bir fikri yoki qaroriga qo'shilmasangiz, bunga yaxshi sabab keltiring. Borib, bu haqda ular bilan gaplashing. Muqaddas Kitobdan tashqari, oqsoqollarning siz haqingizdagi ma'lumotlar manbai – bu sizning o'zingiz!

Jamoat yetakchilariga ishonchsizlik ko'rsatishdan ko'ra, ularning yo'qligida boshqalar bilan uchrashing va ularni (yetakchilarni) qay tarzda qo'llab-quvvatlash haqida reja tuzing. Jamoat yetakchilari o'z xizmatlarini majburiyat yuzasidan emas, balki xursandchilik bilan ado eta olishlari uchun strategiya tuzing. Ibroniylarga maktubida yozilganidek, bu yetakchilaringizni siz uchun Xudoning marhamatiga aylantiradi.

5 MUNOSABAT XUSUSIYATLARI

Oqsoqollar ham, a'zolar ham bir-birlariga xizmat qiladilar va bir-birlarini Xudoga yaqinlashtiradilar. Bunday munosabatni beshta xususiyatlarni ta'riflash orqali umumlashtirishga ijozat bering.

1. Aniq Tan Olish. Jamoat oqsoqollarni o'zining manfaati uchun Xudodan berilgan in'omlar sifatida

tan olishi kerak. Agar oqsoqollar Muqaddas Kitobga qarshi hatti-harakatlar qilgandagina jamoat ularning ta'lim berish va yetakchilik qilish vazifalaridan ozod qilishi mumkin. Oqsoqollar esa, o'z tomonlaridan, jamoatning Xudo bergan hokimiyatini tan olishlari kerak.

2. Samimiy Ishonch. Jamoat o'z oqsoqollariga ishonishi, ularni himoyalashi, hurmat qilishi va e'zozlashi kerak. "Imonlilar jamoatini yaxshi boshqarayotgan, xususan astoydil va'z aytib, ta'lim berayotgan oqsoqollar hurmatga sazovordirlar, ular qilgan mehnatlariga yarasha taqdirlansinlar" deydi Pavlus (1-Tim. 5:17). Jamoat a'zolari "Qilayotgan ishlari uchun muhabbat bilan ularni (yetakchilarni) e'zozlashi" kerak (1-Sal. 5:13). Oqsoqollar jamoat ishlarini olib borishlari kerak, jamoat esa, ularning yetakchiligiga bo'ysunishi kerak.

3. Oshkora Xudojo'ylik. Biz Pavlusning Timo'tiy va Titusga yozgan maktublarida oqsoqollar "kamchiliksiz" bo'lishi kerakligiga bergan urg'uni ko'rib chiqqan edik (Titus 1:6). Oqsoqol o'z hayot tarzini boshqalar tekshirishiga bajonidil oshkora bo'lishi, uyi mehmondorchilik uchun, o'z oilaviy hayotini

ko‘rishlari uchun boshqalarni faol qabul qilishga tayyor bo‘lishi lozim.

4. Samimiy Ehtiyotkorlik. Oqsoqollarning o‘z vakolatlaridan foydalanish tarzi jamoat ularga emas, balki, Masihga tegishli ekanligini tushunishlarini namoyon etishlari kerak. Masih jamoatni O‘z qoni evaziga sotib olgan. Shuning uchun, oqsoqollar jamoatni parvarishlashi, unga ehtiyotkorlik va muloyimlik bilan munosabatda bo‘lishi hamda Xudoning ulug‘vorligi uchun jamoatni sadoqat va benuqsonlikka yetaklashi kerak. Oqsoqollar o‘z xizmatlari bo‘yicha Masihga hisobot beradilar.

5. Foydali Natijalar. Hokimiyatdan oqilona foydalansa, bu hokimiyat orqali boshqariladiganlarga foyda keltiradi. Uyda ham, Xudo bilan munosabatda ham xuddi shunday. Jamoatda ham xuddi shunday. Xudo jamoatni O‘zi bergan ustozlari orqali ko‘taradi, jamoat esa, bundan foyda ko‘radi. Oqsoqollar hokimiyatni oqko‘ngillik bilan boshqarish orqali shaytonning “hokimiyatni birovga hech qachon ishonib topshirib bo‘lmaydi, chunki u har doim jabr-zulmga va zo‘ravonlikka asoslangan”, degan yolg‘oniga barham berishadi.

Yuqorida ko‘rib chiqqan Ibroniylarga 13:17da yetakchilar o‘zlariga ishonib topshirilganlarni qanday yetaklayotganlari bo‘yicha hisobot berishlari hamda jamoat a‘zolari o‘z yetakchilariga ergashmasalar ular “samarasiz” qolishlari va‘da qilingan.

Edvard Griffin (1770–1837) o‘zi ko‘p yillar davomida yaxshi xizmat qilib kelgan jamoatidan iste‘foga chiqayotganida, u o‘z jamoatiga qanday qilib faqatgina cho‘ponga bog‘lanib qolmaslik bo‘yicha nasihatlar beradi. Uning so‘zlari Xudo bizga ishonib topshirganlarning barini oqsoqollar sifatida, qanday parvarishlash kerakligiga doir bizga ham ko‘rsatmalar beradi:

O‘zing uchun va o‘z farzandalaring uchun, sening cho‘poning bo‘lishga tanlangan cho‘ponni ehtiyot qil va e‘zozlagin. U allaqachon seni sevadi va tez orada u seni “o‘z suyaklaridan paydo bo‘lgan suyakdek va o‘z etidan yaralgan etdek” sevadi. Uning ishini qo‘lingdan kelgancha, u uchun yoqimli qilish bu sening ham vazifang va ham sening foydang uchundir. Juda

ko‘p narsalarni talab qilma. Juda tez-tez tashrif buyurishini ham talab qilma. Agar u, ba’zilar talab qilgandek, o‘z vaqtining yarmini shu tarzda sarflasa, u o‘z izlanishlarini butunlay tashlab qo‘yishiga to‘g‘ri keladi, agar undan oldinroq tashvishlarga ko‘milib ketmasa. Unga qarshi aytilishi mumkin bo‘lgan har qanday yoqimsiz narsalar haqida unga ma’lumot berma; agar qarshilik yuzaga kelayotgan bo‘lsa, uning huzurida tez-tez bunga shama qilma. U Masihning xizmatchisi bo‘lsada, unda ham insoniy hissiyotlar borligini unutma.²¹

KONGREGATSIONALIZM

—U NIMA UCHUN MUHIM

Bularning bari nega bunchalik ahamiyatga ega? Birinchidan, biz Xudo yaratgan tuzilmalarga ishonishimiz va aynan shunday yo‘l tutishida Uning donoligiga ishonishimiz kerak.

Ikkinchidan, tarixning hukmi shu yerda. Hech qaysi boshqaruv shakli jamoatlarni xato qilishdan, to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishdan va natijasizlikdan himoya

qilolmaydi, lekin ko‘proq markaziydashgan boshqaruv shakllari sadoqatli, jo‘shqin, xushxabarga asoslangan guvohliklarni namoyon etishda kongregatsionalistik jamoatlarga qaraganda yomonroq iz qoldirgan ko‘rinadi. Papalik o‘zini o‘zi masihiy deb e‘lon qilganlar ustiga katta balolarni yog‘dirdi. Yepiskoplar bundan ozgina yaxshirog‘ini qildilar. Hatto assambleyalar, konferensiyalar, kengashlar va sessiyalar maslahatchilar bo‘lishdan yagona qaror chiqaruvchilar bo‘lishga o‘tganlarida, kalomiy jihaddan tasdiqlangan vakolatlari doirasidan chiqdilar va foydadan ko‘ra ko‘proq muammolar olib keldilar.

Injil xushxabarining o‘zi shu darajada oddiy va aniqki, va yangi tug‘ilishdagi Muqaddas Ruhning ishi orqali Xudo bilan bo‘lgan munosabatimiz shunchalik haqqoniyki, bu xushxabarga ishongan va Xudoni tanigan odamlarning yig‘indisi (yoki jamoasi) ana shu xushxabarning eng yaxshi himoyachilari bo‘lishi mumkin emasmi? Biz Muqaddas Yozuvlarda ko‘rgan narsa shu emasmi?²²

Oqsoqollar yetakchilik qiladigan kongregatsionalizm “xushxabarning kuch markazidir”, deya xulosa qiladi Jonatan Liman. U “xushxabarni himoya

qiladi, masihiy shogirdlarni imonda yetuk qiladi, butun jamoatga kuch bag'ishlaydi, uning muqaddas samimiyligi va guvohligini mustahkamlaydi va jamoatni o'zgalarni so'zda va amalda yaxshiroq sevishga qurollantiradi.”²³

7-BOB

JAMOAT A'ZOLARI KIMLAR?

Oqsoqollar kongregatsionalizm (jamoatchilik) kontekstidan kelib chiqib yo'lboshchilik qilar ekanlar va nihoyat biz jamoat a'zolari kimlar, degan savolni berishimiz lozim.

Bugungi kunda butun jamoat a'zoli g'oyasi ko'pchilikka teskari natija beradigan bo'lib tuyulmoqda. Aytaylik, kimdir biz bilan, kimdir biz bilan emas, deb ajratish boshqalarga dushmanlarcha munosabatta bo'lishni bildirmaydimi, balki , hatto elitachilik (saralik) ni bildirar? Aslida, men aminmanki, buni to'g'ri amalga oshirsak, jamoatlarimizni jonlantirish, xalqlarimizga xushxabar yoyish, Masih ta'sirini butun dunyo bo'ylab ilgari surish va shu orqali Xudoga sharaf keltirish sari eng muhim qadam qo'ygan bo'lamiz!

Amerikalik yevangeliyachilar (injilchilar) ayniqsa, mening birodarligimdagi jamoatlar – Janubiy

Baptist Konvensiyasi bu mavzuni qayta ko‘rib chiqishga favqulotda muhtojdir. Janubiy Baptistlarga tegishli tadqiqotlardan birining natijasiga ko‘ra, bir necha yil oldin, bitta o‘rtamiyona Janubiy Baptist jamoatida 233 ta jamoat a‘zosi bo‘lgan va yakshanba kunidagi ertalabki yig‘ilishlarda esa bor-yo‘g‘i 70 kishi qatnashgan. Mening savolim shunday: qolgan 163 a‘zo qayerda? Bu atrofimizdagi dunyoga masihiylik haqida qanday xabar yetkazadi?

JAMOAT NIMA?

Biz mana shu savol bilan boshlaymiz, “Jamoat nima?” Jamoat – bu qandaydir bino emas. Aslan, jamoat – bu uning a‘zolaridir. Bu faqatgina Xudoga sharaf keltirish uchun faqatgina Xudoning inoyati tufayli va faqat Masihga imon keltirish orqali najotga erishganligini e‘tirof etadigan va guvohlik beradigan odamlarning doimiy yig‘ilishi (jamoasi) dir. Ilk masihiylar jamoat boshlangandan keyin deyarli uch yuz yil davomida bironta binoga ega bo‘lishmagan. Shunga qaramay, ilk paytlardan boshlab mahalliy jamoatlar ma‘lum bir odamlardan iborat jamoalar bo‘lishgan. Ma‘lum

bir odamlar bu jamoani tashkil etishgan va boshqalarni undan *tashqaridagilar* sifatida bilishgan. Shuning uchun, Matto 18-bobdagi Iso o'rgatgan va 1-Korinfliklarga 5-bobdagi Pavlus o'rgatgan choralar biror kishini jamoatdan chetlatish holatini o'zida namoyon etadi.

Aniq belgilangan odamlar jamoasi g'oyasi Xudoning ham Eski, ham Yangi Ahddagi faoliyatida markaziy o'rin egallaydi. U Nuh va uning oilasini boshqalardan farqlaydi va alohida ajratadi. Keyin Ibrohim va uning avlodini. Keyin Isroil xalqini. Hozir esa, Yangi Ahdda, jamoatni boshqalardan ajratib olgan. Xudo O'z xarakterini namoyon etish uchun har doim alohida ajratilgan odamlarni qo'llab-quvvatlab kelgan. Shuning uchun, U O'ziga tegishli bo'lganlarni O'ziga tegishli bo'lmaganlardan ajratish uchun ularning orasida o'tkir va aniq chiziq bo'lishni xohlab kelgan.

Yig'ilgan jamoa sifatidagi ushbu jamoat konsepsiyasi, masalan, Baptist masihiylarni boshqa ko'pchilikdan ajratgan narsadir. Reformatsiya paytida davlat va jamoat o'rtasidagi munosabat ham yaqin va ham murakkab bo'lgan. Ma'lum bir siyosiy

yurisdiksiya chegaralari ichida tugʻilgan har bir kishi davlat jamoatiga (cherkoviga) aʼzo boʻlish imkoniga ega boʻlishi kerakligi koʻzlangan. Baptistlar oʻshanda imonlilarning choʻmdirilishini; shu bilan birga, qayta tugʻilishni eʼtirof eʼtadigan va bunga guvohlik beradigan odamlar jamoasi sifatidagi jamoat gʻoyasini qayta tiklashga yordam berishgan.

Vaholanki, jamoat tabiiy yoʻl bilan yuzaga kelgan oilaga yoki biror bir davlat fuqaroligiga tegishli boʻlgan odamlar uchungina emas. Yoʻq, Yangi Ahd bizga jamoat imonlilar uchun ekanligini oʻrgatadi. Biz oʻsha jamoat erkinlikda faoliyat koʻrsata olishi uchun bunday erkinlikni taʼminlab beruvchi bu zamindagi qonunlar tarafdorimiz. Baptistlar Amerikada (masalan, markazlashgan Katolik cherkoviga oʻxshash) yangi tashkil etilgan jamoatning tarafdori emas; aslida, biz buning eng ashaddiy dushmanlarimiz. Bizning jamoat haqidagi tushunchamiz bunga yoʻl qoʻymaydi. Buning oʻrniga, biz davlat ichida va butun dunyoda xushxabar bir-biri bilan Iso Masihning xushxabarida erkin hamkorlik qila oladigan jamoatlar orqali yoyilishi tarafdorimiz.

JAMOAT A'ZOLIGI BELGILARI

Biror kishi ma'lum bir jamoatning a'zosi yoki a'zosi emasligini qayerdan bilish mumkin?

Birinchidan, biron bir jamoatning a'zosi bo'lish uchun siz imonli sifatida cho'mdirilishingiz kerak. Matto 28-bobda Iso Unga ergashadigan har bir kishi cho'mdirilish orqali o'z imonini e'tirof etishini buyurgan. Cho'mdirilish orqali biz unga tegishli ekanligimizni rasman e'lon qilamiz. Butun Havoriylar kitobi bo'ylab shogirdlar bu buyruqni yaxshi tushunishadi va unga bo'ysunishadi. Shuning uchun, Pavlus Rimdagi jamoatga maktub yozayotganda, u bir guruh cho'mdirilgan odamlarga yozayotganini bilgan (Rim. 6:3–4).

Ikkinchidan, biron bir jamoatning a'zosi bo'lish uchun siz doimiy tarzda Qutlug' Kechlikda ishtirok etishingiz kerak. Kechlik orqali biz Masihning yagona tanasiga sherik bo'lamiz va Uning o'limini e'lon qilamiz (1 Kor. 10:16–17). Agar cho'mdirilish Yangi Ahdning ramzi bo'lsa, Qutlug' Kechlik buni eslatadigan taomdir. Biz Uni “xotirlash uchun” yeymiz va ichamiz. Cho'mdirilish va Qutlug' Kechlik haqida chuqurroq o'rganmoqchi bo'lsangiz, Bobby

Jemisonning ushbu Jamoat Asoslari to'plamidagi shu mavzularga doir ikki kitobiga nazar soling.

Uchinchidan, jamoat a'zosi bo'lish uchun siz doimiy tarzda jamoat bilan birga yig'ilishingiz kerak. Bu, ehtimol, biri-birimizga xizmat qilishning asosidir. Ibroniylarga maktubida muallif quyidagicha buyuradi: "Bir–birimizga e'tiborli bo'lib, bir–birimizni mehr–muhabbatga va xayrli ishlarga chorlaylik. Ba'zi odamlarga o'xshab, yig'ilishlarimizni qoldirmaylik. Aksincha, Rabbimiz Isoning keladigan kuni yaqinlashib qolganini bilib, bir–birimizni yanada ko'proq ruhlantiraylik" (10:24–25).

Yangi Ahd jamoatni ruhiy ma'bad, bizni esa, toshlar deb ataydi (1-Butrus 2:5). U jamoatni tana, har birimizni esa, a'zolar deb ataydi (1-Kor. 12). U yana bizni suruvdagi qo'zilar va tokdagi novdalar deb ham ataydi (Yuhanno 10:16; 15:5). Kalomiy jihatdan, masihiy odam jamoat a'zosi bo'lish kerak. A'zolik esa, shunchaki, qog'ozda yozilgan nom yoki biz voyaga yetib, ulg'ayib o'sgan joyga nisbatan mehrimizni e'lon qilish amali emas. U hayotiy bag'ishlanish va yig'ilishlarda doimiy qatnashishni o'zida aks ettirishi kerak, aks holda, bu

befoyda. Aslida, bu befoydalikdan ham yomonroq – u xavflidir.

Jamoat hayotida ishtirok etmagan “a’zolar”, ham haqiqiy a’zolarining, ham masihiy bo’lmaganlarning masihiy bo’lish nimani anglatishi haqidagi tushunchalarini chalkashtirishadi. Agar biz “faol” a’zolar ko’ngilli ravishda “nofaol” a’zolariga jamoat a’zolari bo’lib qolishlariga qo’yib bersak, biz ularga xizmat qilmayotgan bo’lamiz. Chunki, a’zolik inson najotga erishganligi haqida jamoatning umumiy tasdig’ini ta’minlaydi. Iltimos, tushuning: jamoat a’zoliigi insonning najotga egaligi haqidagi jamoatning umumiy guvohligidir. Shuning uchun, kimdir sadoqat bilan shu yo’ldan yurayotganini hech qachon ko’rmasa, jamoat qanday qilib u haqda vijdonan guvohlik bera oladi?

Mening jamoatimda, biz yig’ilishda ishtirok etishni to’xtatib qo’yganlarning holidan doimiy tarzda xabardor bo’lishga harakat qilamiz. Agar ularning jamoatga qatnashga imkonlari bo’lsa, biz ularni jamoatga qaytishga yoki boshqa jamoatga qo’shilishga chorlaymiz. Agar ular buni rad etishsa, biz intizomiy chora ko’rishga o’tamiz; keyingi punkt mana shu haqda.

To'rtinchidan, jamoat a'zosi bo'lish jamoatga hisobdorlikka va uning tartib-intizomiga bo'ysunishni anglatadi. O'qituvchilar ta'lim berishadi va xatolarni tuzatishadi. Shifokorlar sog'lom yashash tarzini tayinlashadi va kasallikka qarshi kurashishadi. Masihiy ustoz-shogirdlik ham xuddi shunday, shakllantiruvchi intizom (ta'limot) va tuzatuvchi intizomdan iborat. Biz bir-birimizni norasmiy tarzda tuzatish so'zlari orqali shaxsan tuzatamiz. U tavba qilishdan bosh tortsa, biz buni rasman va omma oldida amalga oshiramiz. Iso buni buyurgan. Pavlus buni buyurgan. Ilk jamoatlar bunday amaliyotlarni olib borishgan. Jonatan Limanning Jamoat Asoslari to'plamidagi ushbu mavzuga doir kitobiga nazar soling.

Va nihoyat, beshinchidan, sevgi jamoat a'zoli-gining belgisidir. Iso O'z shogirdlariga quyidagi so'zlarni aytgan: "Sizlarga yangi amr beryapman: bir-biringizni sevinglar. Men sizlarni qanday sevgan bo'lsam, sizlar ham bir-biringizni shunday sevinglar. Agar bir-biringizni sevsangiz, sizlar Mening shogirdlarim ekaningizni hamma shundan bilib oladi" (Yuhanno 13:34–35). Agar siz boshqa

masihiylar bilan faol sevgiga asoslangan munosabatlarda bo'lmangiz, siz o'zingizni masihiyman, deb atay olmaysiz. Yuhanno quyidagicha ogohlantiradi: “Agar biror kishi Xudoni sevaman desa—yu, birodaridan nafratlansa, u yolg'onchidir. Ko'rib turgan birodarini seva olmagan odam ko'rmagan Xudoni ham seva olmaydi” (1-Yuhanno 4:20). O'zimizni o'zimiz aldash va o'zimizga yuqori baho berishga moyilligimizga qaramasdan, Xudoga shukurki, U o'z mag'rurligimiz va ko'rlikimizni tekshira olishimiz uchun bizga boshqa azizlarni namuna qilib bergan!

Ko'pgina bosh narsalar biz mahalliy jamoatda bir-birimizga nisbatan amalga oshiradigan sevgiga asoslangan bag'ishlanishdan kelib chiqadi. Masalan, biz jamoatimiz a'zolaridan *ishonch belgisi* va *jamoat ahdi*ga imzo qo'yishlarini so'raymiz. Biz a'zolar jamoat uchun ibodat qilishlarini, jamoatni moddiy qo'llab quvvatlashlarini va ular jamoatdagi xizmatlarda faol ishtirok etishlarini kutamiz. Lekin, bularning bari cho'mdirilish, Qutlug' Kechlik, yig'ilishlarni qoldirmaslik, intizom va sevgidan boshlanadi.

NIMA UCHUN JAMOATGA QO'SHILISH KERAK?

Jamoatga a'zolik Masihga shogird sifatida ergashishning o'ta muhim qismidir. U sizni yaxshi ishlaringiz, olgan ma'lumotingiz, madaniyatingiz, do'stlaringiz, ushurlaringiz yoki cho'mdirilishingizdan ko'proq hech qanday najot bermaydi. Lekin, jamoatga qo'shilish Masih tanasi a'zolari qiladigan ishdir. Agar *birov bir* jamoatga qo'shilmagan bo'lsangiz, *Jamoatga* tegishliman deb aytming.

Xushxabar va'z qiladigan va masihiy hayot tarzi uchun namuna ko'rsatadigan jamoatga qo'shilish uchun oltita sabab keltirishga ijozat bering.

1. *Aminlikka Ega Bo'lishingiz uchun*

Siz najotga erishish uchun emas, balki najotga erishganingizga amin bo'lishingizga yordam berishi uchun jamoatga qo'shilishingiz kerak. Iso nima deganini bir eslang: "Mening amrlarimni bilib, ularga amal qilgan kishi Meni sevadi. Kim Meni sevsa, Otam ham uni sevadi. Men ham uni sevaman va O'zimni unga ayon qilaman" (Yuhanno 14:21).

Jamoatga qo'shilish orqali biz o'zimizni shunday vaziyatga qo'yamizki, biz birodar va opa-singillarimizdan aytganlarimiz bo'yicha yashashga bizni nazorat qilishlarini so'ray olamiz. Biz ulardan Xudo bizning hayotimizda ishlayotganiga qanday qarashlarini aytish orqali bizni ruhlantirishlarini yoki biz Unga itoatkorlikda yashashdan chetga o'tganimizda bizni to'g'ri yo'lga da'vat etishlarini so'raymiz. Sizning mahalliy jamoatga a'zolingiz – sizning hayot tarzingiz yuqoridan tug'ilganingizdan dalolat berayotganiga jamoatning omma oldidagi guvohligidir. Bu najot bermaydi, balki najotga erishganingizni aks ettiradi. Agar aks ettirmasa, biz najotga erishganimizga qanday amin bo'la olamiz?

Jamoatga a'zo bo'lish orqali biz bir-birimizni bilish va bir-birimizga ma'lum bo'lish uchun qo'llarimizni mahkam ushlaymiz.

2. Xizmatga Tayyorlanish uchun

Pavlus aytadiki, “Masih ba'zilarni havoriy, ba'zilarni esa payg'ambar, ba'zilarni Xushxabar voizi, yana boshqalarni jamoatlarning cho'ponlariyu ustozlari qilib tayinladi, toki ular Xudoning aziz xalqini

xizmat qilishga tayyorlasinlar. Shunda Masihning tanasi, ya'ni jamoat imonda mahkam turadi" (Efes. 4:11–12). Bu yerda ikkita narsaga e'tibor bering. Birinchidan, jamoat yetakchilari bizlarni tayyorlaydilar. Ikkinchidan, ular bizni Masih tanasini mustahkamlash xizmati uchun tayyorlaydilar.

Boshqacha qilib aytganda, biz xizmat qilish uchun tayyorlanish maqsadida jamoatlarga qo'shilamiz, zero barchamiz xizmat qilishga chaqirilganmiz. Jamoat yetakchilari Xudoning qanday ajoyib in'omlari ekanligini bir o'ylab ko'ring-a! Jamoat yetakchilarini deb jamoatga qo'shiling. Ular sizni xizmat uchun tayyorlaganda ularni qo'llab quvvatlang.

3. Jamoatga Nasihat Berish uchun

Agar biz xizmatga tayyorlanish uchun jamoatga qo'shilsak, biz, shu bilan birga, jamoatni mustahkamlash *uchun* unga qo'shilamiz. Shunda jamoatga qo'shilishning uchinchi sababi jamoatga nasihat berish yoki uni mustahkamlashdir. Jamoatga qo'shilish bizga o'zimizning noto'g'ri shaxsiyatparastligimizga (individualizm) qarshi chiqishga va

o'zimiz uchun masihiylikning umumiylik tabiatini kashf etishga yordam beradi. Yangi Ahd masihiy hayot bir-biriga mehribonlik va g'amxo'rlik qilishni o'z ichiga olishni o'rgatadi. Bu masihiylik deb atalmish yo'lning bir qismidir. Biz buni mukammal bajara olmasak ham, bajarishga o'zimizni bag'ishlashimiz kerak. Biz solihlik, sevgi, fidoiylik va Masihga o'xshashlik sari qo'yilgan hatto chaqaloq qadamlarini ham qo'llab quvvatlashga tayyormiz.

Jamoat a'zolicigiga doir darslarimda men odatda jamoatga qatnagan paytida, masihiy xizmat kampusi uchun ishlagan bir do'stim haqida aytib beraman. U mening jamoatimga qatnardi. U har doim hamdu-sanolardan keyin yetib kelar va va'zni tinglab qaytib ketar edi. Bir kuni men undan nega yig'ilishda to'liq ishtirok etmaysan, deb so'raganimda, u "Men yig'ilishning qolgan qismidan hech narsa olmayman", deb aytgandi.

Bunga javoban, "Jamoatga qo'shilish haqida hech o'ylab ko'rganmisan?", deb so'radim.

U buni shunchaki be'mani savol deb o'yladi: "Nima uchun jamoatga qo'shilish kerak? Agar qo'shilsam, ular mening ruhan rivojlanishimni

susaytirishadi.” U bu soʻzlarni aytganda, u masihiy boʻlish nimani anglatishini qanday tushunar ekan, deb qiziqdim.

Unga javoban shunday dedim: “Hech oʻylab koʻrganmisiz, balki Xudo sizni oʻsha odamlar bilan birga boʻlishingizni xohlar? Shubhasiz, ular sizning tezligingizni pasaytirishi mumkin, lekin siz ularning tezligini oshirishda ularga yordam berishingiz mumkin. Balki, mana shu Xudoning masihiylar sifatida birgalikda yashishimizdan koʻzlagan maqsadining bir qismidir!”

4. Dunyoga Xushxabarni Yetkazish uchun

Shu bilan birga, siz butun dunyoga xushxabarni yetkazish maqsadida ham mahalliy jamoatga qoʻshilishingiz kerak. Mahalliy jamoat, tabiatan, elchilik xizmati tashkilotidir. Birgalikda biz oʻzimiz yashab turgan joyda va butun dunyoga xushxabarni yaxshiroq yoya olamiz. Biz buni soʻzlarimiz orqali, yaʼni Xushxabar bilan boʻlishish hamda uni boʻlishishda bir-birimizga koʻmaklashish orqali amalga oshiramiz. Shu bilan birga, biz buni birgalikdagi hayotimiz orqali amalga oshiramiz. Birgalikda biz soʻzlarimizning

hayotni o'zgartiruvchi qudratini uyushgan holdagi guvohligimizda taqdim etamiz. Bu uyushgan guvohlik bizning bir-birimizga bo'lishgan mehmondorchiligimizdan boshlab to yetimlar, kasallar, bolalar va kam ta'minlanganlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish-gacha bo'lgan barcha ishlarni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina jamoatlarning hamkorligi orqali biz xushxabarni butun dunyo bo'ylab tarqalishiga ko'maklashamiz va biz tabiiy ofatdan jabr tortganlarga yordam berish, ta'lim va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan behisob boshqa xizmatlarni moliyaviy ta'minlash va ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun millionlab dollarlar va minglab ko'ngillilarni ta'minlaymiz. Biz mukammal emasmiz, lekin agar Xudoning Ruhi rostdan ham ichimizda ishlasa, U o'z xushxabari haqiqatini namoyon etishga ko'maklashish uchun bizning hayotimiz va so'zlarimizni ishlatadi. Bu, ya'ni Xudo xushxabarini butun dunyoga yoyish rejasining bir qismi bo'lish, jamoatning hozirgi maxsus imtiyozidir.

5. *Soxta Xushxabarlarni Fosh Etish uchun*

Xudo soxta xushxabarlarni fosh etish uchun ham biz shu tarzda birgalikda faoliyat ko'rsatishimizni

xohlaydi. Bu masihiylik aslida nima ekanligini dunyoga ko'rsatish uchun masihiylar sifatida birgalikda harakatlanish orqali amalga oshiriladi. Jamoatlari-mizda biz Kalomga asoslangan masihiylik deya ilgari surilgan, aslida esa, bunday bo'lmagan xabarlar va g'oyalarni birgalikda fosh etamiz.

O'zlarini masihiy "jamoatlar" sifatida ko'targan juda ko'p yomon, adashgan, buzilgan guvohlar (yoki shohidlar) bor. Jamoat vazifasining bir qismi – bu haqiqiy xushxabarni himoya qilish va uning buzilishlarini oldini olish va ularni fosh etishdir.

6. Xudoni Ulug'lash uchun

Va nihoyat, masihiy inson Xudoning ulug'vorligi uchun jamoatga qo'shilishi kerak. Butrus ba'zi ilk masihiylarga shunday deb yozadi: "Imonsizlar orasida Xudoga munosib hayot kechiringlar. Ular sizlarni yomonlikda ayblasalar—da, ezgu ishlaringizni ko'rib, kim bilsin, balki tavba qilishar va qiyomat kuni Xudoni ulug'lashar" (1-Butrus 2:12). Ajoyib, shunday emasmi? Xudo bizning ezgu ishlarimiz tufayli ulug'lanadi! Siz Rabbimiz tog'dagi va'zida "Sizning nuringiz ham insonlar oldida shunday porlasinki, toki

ular yaxshi ishlaringizni ko'rib, osmondagi Otangizni ulug'lasinlar" (Matto 5:16), degan so'zlarini Butrus eshitgan deb aytishingiz mumkin.

Agar bu har birimizga shaxsan to'g'ri kelsa, Xudoning So'zi jamoatlarimizda birgalikdagi hayotimizda xuddi shu narsani gapirishi bizni hayratga solmasligi kerak. Dunyo bir-birimizga nisbatan bo'lgan sevgimizni ko'rib bizni masihiy ekanligimizni bilib olishadi: "Agar bir-biringizni sevsangiz, sizlar Mening shogirdlarim ekaningizni hamma shundan bilib oladi" (Yuhanno 13:35). Bizning birgalikdagi hayotimiz Unga tegishli ekanligini ko'rsatadi va Unga olqish va ulug'vorlik keltiradi.

Shuning uchun, mening masihiy do'stim, jamoatga shunchaki qatnamagin, balki jamoatga qo'shilgin. Boshqa masihiylarga qo'shilgin. Qo'shilish mumkin bo'lgan jamoatni topgin va unga qo'shilgin, toki masihiy bo'lmaganlar xushxabarni eshitishsin va ko'rishsin, toki imoni zaif masihiylarga ga'mxo'rlik qilishsin, toki imoni kuchli masihiylar o'z kuchlarini to'g'ri yo'lda ishlatishsin, toki jamoat yetakchilari qo'llab-quvvatlansin va ko'maklashilsin, toki Xudo ulug'lansin.

XULOSA

XUDO ULUG'VORLIGINING NAMOYON BO'LISHI

Agar siz jamoat hosil qiladigan birgalikdagi hayot nima ekanligini tushunmoqchi bo'lsangiz, buning ustida fikr yuritish uchun Pavlusning Korinfliklarga yozgan birinchi maktubi ajoyib kontekstni tashkil etadi. Siz shunda jamoatlar ayniqsa, muqaddaslik, birlik va sevgi bilan ajralib turishi kerakligini ko'rasiz.

Jamoatlar nima uchun bunday bo'lishi kerak? Chunki, jamoat xarakteri Xudoning xarakterini namoyon etishi kerak. Biz muqaddas, birlikka ega va sevuvchi bo'lishimiz kerak, chunki Xudo muqaddas, yagona va sevuvchidir.

MUQADDAS, YAGONA VA SEVUVCHI

Birinchidan, biz muqaddas bo'lishimiz kerak; dunyo uchun bu ga'lati tuyulishi mumkin, lekin

Xudo uchun maxsus, Unga ajratilgan va pok bo'lishimizni bildiradi. Muqaddaslik jamoatni ajratib turuvchi xususiyat, ya'ni biz uchun umumiy, o'ziga xos, "savdo belgisi" bo'lishi kerak. Kimdir bizning jamoatimiz haqida gapirganda, ular *Bu muqaddas jamoa* deb o'ylashlari kerak. O'z nazarida solih, riyokor odamlar guruhi emas, balki yuraklari ajoyib tarzda Masihga va Uning ulug'vorligiga yo'naltirilgan (chunki, bu yaxshiroq, ko'proq insonparvar va ko'proq Xudoni sharaflaydigan hayot tarziga olib keladi) odamlar jamoasidir. Jamoat yetakchilarining cho'ponlik qilish va ta'lim berish xizmatlari muhim ekanligining bitta sababidir. Biz muqaddas bo'lishimiz kerak, zero Xudo muqaddasdir.

Ikkinchidan, biz yakdil (bir) bo'lishimiz kerak, chunki Xudo Yagonadir. Korinf jamoatidagi bo'linishlar va nizolar haqida eshitgandan keyin, Pavlus "Nima, Masih bo'linganmi", deb so'raydi (1-Kor. 1:13). Qanday qiziq savol! Buning orqasida turgan kuchli teologik faraz jamoat Masihning tanasi ekanligidir: "Endi sizlar, Masihning tanasisizlar, har biringiz tananing alohida bir a'zosisiz" (1-Kor. 12:27). Pavlusga bunday fikr qayerdan kelgan deb

o‘ylaysiz? Menimcha, imonga kelgan zahoti unda bunday fikr paydo bo‘lgan. Iso Damashq yo‘lida Pavlusni qanday to‘xtatganini eslang. Iso “Shoul, Shoul! Nega masihiylarni quvg‘in qilyapsan?”, yoki “Shoul, Shoul! Nega jamoatni quvg‘in qilyapsan?” deb aytmadi. Yo‘q. U “Shoul, Shoul! Nega meni quvg‘in qilyapsan?”, dedi (Havoriyalar 9:4). Iso jamoat bilan mana shunday yaqin aloqadorlikka ega. U jamoatni O‘zining tanasi sifatida ko‘radi. Shuning uchun, biz bir bo‘lishimiz kerak. Bizning oramizdagi nizolar va bo‘linishlar Iso haqida va Uning qandayligi haqida haqiqatni gapirmaydi.

Muqaddaslik kabi, birlik ham jamoatni ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyat bo‘lishi kerak. Bizning birligimiz yahudiylar va g‘ayriyahudiylarning eski bo‘linishlaridan (1-Kor. 7:19). Shunga qaramay, jamoatlarimiz o‘zlarini boshqa narsalarga tenglash-tirishlari qanday fojiali holat. Biz *bu cho‘ponning jamoati* yoki *bu turdagi musiqa jamoati* yoki *uy maktabi jamoati* yoki *Demokratlar jamoati* va hokazolar jamoatiga aylanamiz. Mana shuning uchun ham Pavlus jamoatdagi bo‘linishlar xabaridan shu darajada xafa bo‘lgan edi. Hatto birlik ziyofatlari

bo‘lmish Qutlug‘ Kechlikda ham ular bo‘lingan edilar. Shunga qaramay, jamoat yetakchilari bizni birlik sari yetaklashlari kerak. Jamoat bir bo‘lishi kerak.

Va nihoyat, biz sevuvchi bo‘lishimiz kerak, chunki Xudo sevuvchidir. Kelin-kuyovlar o‘z nikohlarida 1-Korinfliklarga 13-bobni o‘qib berishlarini xohlashadi, lekin, aslida, Muqaddas Kitobning buyuk sevgi bobi Xudo haqida va jamoat haqidadir. Xudoning sevgisi sabr-toqatli, mehribon, har narsani ko‘taruvchi, nohaqlikka sevinmaydigan, balki haqiqat ila shod bo‘luvchidir. Demak, bizning sevgimiz ham shunday bo‘lishi kerak. Ruhiy yetuklik sevgida namoyon bo‘ladi, deb aytadi Pavlus. U eng buyuk in‘omdir. Shu sababdan, Pavlus 8-bobda “hammamiz bu haqdagi haqiqatni bilamiz. Ammo bilim odamni shishintiradi, mehr-muhabbatli inson esa, atrofdagilarning manfaatini ko‘zda tutadi” (8:1). 8-bobdan 14-bobgacha bo‘lgan matnda biz qilishimiz kerak bo‘lgan barcha ishni sevgi boshqaruvida qilishimiz kerakligi haqidagi uzoq ekskursiya yoritadi. Bizning barcha in‘omlarimiz, xizmatlarimiz va ishimiz birgalikda “imomlilar jamoatini mustahkamlash niyatida qilinishi”

kerak (14:26). Pavlus keyin 16-bobda xulosa yasab “Hamma narsani mehr-muhabbat bilan qilinglar” deydi (14-oyat). Va nihoyat, Masih O‘z qonini to‘kishi va biz uchun jonini qurbon qilishi orqali ko‘rsatgan sevgisi haqida o‘ylang, axir (11:23–26). Jamoat sevuvchi bo‘lishi kerak, chunki Xudo sevuvchidir. Bu eng ajoyib tarzda Injil xushxabarida bayon etilgan.

Jamoat shunday buzuq, gunohkor va xudbin dunyoda Xudoning muqqaddasligi, yagonaligi va sevgisini namoyon etishi kerak. Biz shunday qilyapmizmi? Sizning jamoatingiz Xudoning xarakterini namoyon etyaptimi? Juda ko‘plab jamoatlar bugungi kunda masihiylikning shunday versiyasini taqdim etyaptilarki, unda barcha azob-uqubatlar shu hayotda inobatga olinadi, barcha qurbonliklar shu hayotda taqdirlanadi va barcha sirlar ushbu hayotda tushuntiriladi. Lekin, bu Pavlus voizlik qilayotgan xushxabar emas. Aslida, bu Rabbimiz Masihning xushxabari emas. Hamda bu bizning jamoatlarimizning ham xushxabari bo‘lmasligi kerak. Agar siz masihiyning hayotini abadiyatning bu tomonida baholasangiz, bu xushxabarga to‘g‘ri kelmaydi. Masihning hayoti ham,

Pavlusning hayoti ham bunday baholanmagan. Bizning hayotimiz ham bunday baholanmasligi kerak (1-Kor. 15:17–19ga qarang).

XUDONING ASOSIY DALILLARIDAN BIRI

Xudo jamoatda nima qilayotganini ko‘ra olasizmi? “Dunyodagi e‘tiborli hisoblanganlar arzimas bo‘lib qolsin deb, Xudo bu dunyodagi e‘tiborsiz va kamsitilgan, ya‘ni ahamiyatsiz, deb hisoblanganlarni tanladi. Shunday qilib, hech bir inson Xudoning oldida maqtana olmaydi” (1-Kor. 1:28–29). Xudo siz bilan menga o‘xshagan o‘jiz va gunohkor odamlarni tanlaydi, chunki U O‘zini noma‘lum qilishni xohlamaydi!

Bir necha yil oldin qatnashgan konferensiyada men cho‘pon Mark Rossning quyidagi gaplarini eshitgan edim: “Biz Xudoning asosiy dalillarimiz. Pavlus jamoat Xudo ulug‘vorligini namoyon etishi haqida qayg‘urardi, shu orqali yovuzlik shohligining barcha ig‘volariga, Xudo U uchun yashashga arzimasligini aytuvchi ig‘volarga qarshi Xudoning xarakterini isbotlay olamiz. Xudo O‘z nomining ulug‘vorligini O‘z jamoatiga ishonib topshirgan. Hayotingizdagi

vaziyatlar Xudoning xususiyatlarini namoyon etishingiz uchun Xudo bergan sharoitlardir.”

Agar ehtiyot bo‘lmasak, bizning shaxsiyatparastligimiz (individualizm) gunohga jiddiy qaramaydigan, masihiylik talablariga javob bermaydigan, ya’ni undan pastda turuvchi “muqaddaslik”ni o‘zida saqlaydi. Bizning xudbinligimiz bizni masihiylikdan pastda turuvchi birlikka yetaklaydi va bu birlik xushxabar haqidagi nomuvofiqlik (bo‘linish) ni tekislaydi hamda boshqa, kamroq ahamiyatga ega narsalar atrofida birlashtiradi. Hatto badanimiz ham, shunchaki bir hissiyot bo‘lgan, uzoq vaqt davomida birga bo‘lganligimiz uchun oila hissiga aylangan, masihiylikdan pastda turuvchi sevgini farqlay oladi. Lekin, bularning birontasi, bizning jamoatlarimizni ifodalamasligi kerak, chunki bularning bari Xudo haqidagi haqiqatni namoyon etmaydi. Ular Uning xarakterini boshqacha qilib ko‘rsatadi. Haqiqiy muqaddaslik tartib-intizomni o‘z ichiga oladi. Haqiqiy birlik faqatgina Masih atrofida bo‘lishi kerak – va jamoatning xilma-xilligi bunga guvohlik beradi. Haqiqiy sevgi esa, hissiyotdan, tabiiy rishtalardan yuqoriroq turadi. U Masih haqi begona odamning

oldiga chiqib boradi. Mana bu Xudo ulugʻvorligining jamoatda namoyon boʻlishidir. Bu jamoat haqiqatda gullab-yashnashi mumkin boʻlgan yagona yoʻldir.

Shunday qilib, biz Xudoning ulugʻvorligini qanday namoyon etamiz? Oʻz Kalomida bizga koʻrsatgan andozaga muvofiq jamoatlarimizni tashkil etish orqali. U uchun muqaddas hayotda, yakdillik va sevgiga asoslangan hayotda yashash orqali. Mana shu jamoat bagʻishlanishi kerak boʻlgan narsadir. Siz shunga bagʻishlanganmisiz?

OQSOQOLLAR: YETAKLASH VA NAMUNA KOʻRSATISH

Hozirgi kunda, Gʻarb madaniyati borgan sari masihiylikka qarshi chiqayotgan bir paytda, masihiylar balandparvoz vaʼzlar va gulduros tanbehlardan koʻra koʻproq narsaga muhtojdir. Ular Masihning ulugʻvorligini gavalantiradigan guvohlardir. Ular muqaddaslik, yakdillik va sevgida namuna boʻla oladigan odamlarga muhtoj. Ular madaniyat oqimi bilan birga suzadigan emas, balki oqimga qarshi suzib, boshqalarni ham yetaklaydigan odamlarga muhtoj.

Faqat bugina emas, ular o‘z jamoatlarida faqatgina bitta odamning bunday namunasidan emas, balki Xudo ta‘minlagan ko‘pchilik oqsoqollarning namunasidan foyda ko‘radilar. Ularning har biri, o‘z in‘omidan kelib chiqib, g‘amxo‘rlik, sadoqat va jasoratga to‘la yetakchilik xizmatini ko‘rsatadilar. “Xudoning kalomini sizlarga o‘rgatgan ustozlaringizni xotirlanglar. Ularning bosib o‘tgan hayot yo‘li haqida fikr yuritinglar. Imonlariga taqlid qilinglar” (Ibromiylarga 13:7).

Men birinchi marta Kapitol Hilldagi jamoatimizga 1993-yilning yozida tashrif buyurganman. Men o‘shanda va‘zxonlarni qidiradigan kengashga *oqsoqollar ko‘pligiga* doir Muqaddas Kitob ta‘limotiga nisbatan ishonchimni ochiq aytdim. Ular hayratda qolishdi, va menimcha, ozgina keyinroqqa surishdi. Bir necha yil davomida ushbu mavzu bo‘yicha vaqti-vaqti bilan ta‘lim bergandan keyin, va nihoyat, 1998-yilda biz yangi tarkibni hamda bizning birinchi oqsoqollar guruhini qabul qildik.

Oxirgi o‘n yetti yil davomida, men birgalikda xizmat qilish sharafiga muyassar bo‘lgan birodarlrim men bilan birga ibodat qilish, muhokama qilish,

ustozlik qilish, ta'lim berish va suruvga cho'ponlik qilish uchun o'z vaqtlaridan minglab soatlar ajratishdi. Ular mening ba'zi kamchiliklarimni to'ldirishdi. Ular meni qo'llab quvvatlashdi va tuzatishdi. Ular juda yolg'izlikda qilinishi mumkin bo'lgan ishni quvonchga va zavqqa aylantirishdi. Ularning xizmatlari ostida jamoatimizning katagina qismi gullab yashnadi. Xudoga shukurki, muqaddaslik, yakdillik va sevgida boshqalarga namuna bo'lishga va ularni yetaklashga chaqirilgan yagona odam emasman. Unday bo'lganda, jamoatning bu narsalarga doir manzarasi qanchalik chegaralangan bo'lar edi!

QILINISHI KERAK BO'LGAN ISHLAR

Butun dunyodagi Baptist jamoatlarida qilinishi kerak bo'lgan ishlar juda ko'p. Juda ko'p jamoatlarda a'zolikka doir amaliyotlar, afsuski, Muqaddas Kitobdagi manzaraga to'g'ri kelmaydi. Natijada, bu bizning xushxabarga doir guvohligimizni xiralash-tiradi hamda xushxabarchilik va ustoz-shogirdlik faoliyatimizga to'sqinlik qiladi. Bo'rttirib ko'rsatilgan a'zolik ro'yatlari, cho'mdirilish yoshining katta

tezlik bilan kamayib borishi, jamoat yig'ilishlariga doimiy ishtirok etmaslik, jamoatdagi intizomiy choralarning yo'qligi bizning juda ko'p jamoatlarimizga xosdir. Zulmatga cho'mgan va halok bo'layotgan dunyoda yorug'lik va hayotning o'ziga xos guvohlari bo'lishimiz uchun jamoatlarimizda o'zgartirilishi kerak bo'lgan narsalar juda ko'p.

Sadoqatli cho'ponlar va jamoatlarga berishimiz mumkin bo'lgan eng katta yordamlardan biri – bu oqsoqollar sifatida xizmat qiladigan malakali odamlar guruhi, ya'ni jamoat a'zolari bo'lgan, lekin asosan, jamoatda rasman ishlamaydigan odamlarning xizmatga qo'shilishidir. Aslida, bunday in'omlarni biz bermaymiz. Biz faqat ularni tan olishimiz mumkin, bunday in'omlarni Iso beradi:

“Masih O'z inoyatiga ko'ra har birimizga turli xil in'omlar bergan. Mana, Muqaddas Bitiklarda quyidagicha yozilgan: “Yuksaklarga chiqdi U, Asirlarni ortidan ergashtirdi. Insonlarga hadyalar berdi.” ... Masih ba'zilarni havoriy, ba'zilarni esa payg'ambar, ba'zilarni Xushxabar voizi,

yana boshqalarni jamoatlarning cho‘ponlariyu ustozlari qilib tayinladi, toki ular Xudoning aziz xalqini xizmat qilishga tayyorlasinlar. Shunda Masihning tanasi, ya’ni jamoat imonda mahkam turadi. Buning natijasida hammamiz imonda yakdil, Xudo O‘g‘lini tanib–biladigan, Masihning kamoliga erishgan yetuk odamlar bo‘lamiz” (Efes. 4:7–8, 11–13).

Siz, jamoat yetakchisi yoki a’zosi, ushbu ajoyib in’omlarni tan olish, e’zozlash yoki ishlatish uchun nima qilyapsiz?

ILOVA

DIAKONNING VAZIFALARI

Quyida Kapitol Hill Baptist Jamoatidagi har xil diakonlik lavozimlari va ularning vazifalari keltirilgan.:

KITOB KIOSKASI DIAKONI

Ushbu turdagi diakon kioskada saqlanayotgan narsalar (kitob, disk va hokazolar) jurnalini yuritadi, kioska shtati uchun ko'ngillilarni yollash va ularni tayyorlash hamda kitob kioskasidagi kirim-chiqimlarga doir masalalarga javobgardir.

Vazifalari:

- Saqlanayotgan narsalarni nazorat qilish.
- Quyidagi usullarda ko'ngillilarni yakshanba kunlaridagi (ertalabki va kechqurungi) va chorshanba kunlaridagi kechqurungi

xizmatlardan keyin hamda Henry Forumlaridan keyin mijozlarga xizmat ko'rsatishga tayyorlaydi:

- Kitob kioskasi hududiga tashrif buyurganlarni kutib olish va salomlashish.
- Kioskada sotiladigan kitoblarga buyurtmalar qabul qilish.
- CD disklar uchun maxsus buyurtmalar qabul qilish.
- Sotuvlar hisob-kitobini yuritish.
- Mijozlarga o'z buyurtmalarini olib ketishlari uchun eslatmalar jo'natish.
- Kitob javonlarini bepul 9Marks adabiyotlari bilan to'ldirish.
- Kioskani yopib ketishdan oldin savdo hisoboti va pullarini jamoat shtati a'zosiga topshirib ketish.
- Maxsus buyurtmalar bo'yicha CD Xizmatiga ma'lumotlar jo'natish.
- Mavjud narsalarning haftalik ro'yxatini tuzishga ko'ngillilarni yollash va ularni tayyorlash.

- Yangi mollarni narxlash va javonlarga tegishlicha joylashtirish.
- Buyurtmalar qaydini olib borish, bir yillik budjet ichida ishlash.
- CD buyurtmalari bo'yicha CD Xizmati bilan muloqot olib borish.
- Sotilgan kitoblarning o'rnini qayta to'ldirish uchun kitoblar buyurtma qilish.

BUDJET DIAKONI

Ushbu turdagi diakon oqsoqollar, boshqa diakonlar va jamoat administratori yordamida yillik budjet tuzish va budjet jarayonini muvofiqlashtirishga mas'ul shaxsdir.

Budjet jarayoni may oyida boshlanadi, shu paytda oqsoqollar kelasi yildagi xizmatlarga doir jamoat xarajatlari miqdorini belgilashadi. Jamoat administratori diakonni kommunal va ma'muriy masalalarga doir rejalashtirilgan jamoat xarajatlari bilan tanishtiradi.

Vazifalari:

- Har bir xizmatga keyingi yil uchun kerak bo'ladigan xarajatlarni aniqlash uchun

boshqa diakonlar va tegishli jamoat a'zolari bilan maslahatlashadi.

- Jamoat shtati xizmatchilarining oyliklari va shtatning boshqa xarajatlariga doir rejalashtirilgan summani aniqlash uchun shtat bilan suhbatlashadi.
- Jamoat rejalashtirilgan budjetni ta'minlashga qodir yoki qodir emasligini daromad va xarajatlar loyihalari orqali aniqlaydi. Agar u xarajatlar daromaddan oshayotganligini aniqlasa, bu haqda oqsoqollarni xabardor qilishi va ularga rejalashtirilgan budjetga tegishli o'zgartirishlar kiritish takliflari bilan birga qaytarishi kerak.
- Oqsoqollar budjetni tasdiqlagandan va uni ilgari surgandan keyin jamoat tomonidan beriladigan har qanday savolga javob berish.

BOLALAR XIZMATI DIAKONI

Ushbu turdagi diakonlar bolalar xizmati hududlarida tozalik hamda tartib bo'lishi uchun javobgardirlar. Ma'muriy jihatdan bolalar xizmati ko'ngillilar ishini tashkil etish (vaqtini belgilash), ularni qayd etish,

treninglar o'tkazish va jamoat tamoyillariga mosligini nazorat qilish ularning zimmasida.

Vazifalari:

- Har bir xizmat oldidan xonalarning xavfsizligi va tozaligiga ishonch hosil qilish. Bu har bir bo'limda yoshga mos o'yinchoqlar joylashganligiga, poldan shiftgacha to'sinlar to'silgan, oyoq ostidagi jalyuza (parda)lar ko'tarilgan va rozetkalar usti qoplanganligiga ishonch hosil qilishni o'z ichiga oladi va bu bilan chegaralanib qolmaydi.
- Har bir xizmat (yig'ilish) dan oldin yuvilgan o'yinchoqlarni o'z joyiga joylashtirib chiqish.
- Har bir xizmatdan oldin va keyin barcha bolalarning xonalarga kirishi va chiqishi qayd etilishini nazorat qilish.
- Har bir xizmatda jamoatning nechta bolaga nechta xizmatchi bo'lishi kerakligiga doir mezoniga mosligiga ishonch hosil qilish.
- Kichik bolalar xonalarida tagliklar (pamper-slar), salfetkalar, tamaddilar va hokazolar serob bo'lishini ta'minlash.

- Har bir xizmat (yig‘ilish) davomida qaysi ko‘ngillilar kichik bolalar xonalarida xizmat qilganliklariga doir qaydlarni olib borish.
- Har bir xizmatdan keyin biron kor-hol ro‘y bergan bo‘lsa, bu haqda ota-onalarga ma‘lum qilish va imzo qo‘ydirib olish, keyin bu haqda bolalar xizmati administratoriga xabar berish.
- Bolalarga qarash treningini olib borish.
- Bolalarga xizmat qilayotgan ko‘ngillilarga “birinchi ko‘mak chizig‘i” sifatida xizmat qilish.
- Bolalar xizmatida xizmat qilish uchun yangi ko‘ngillilarni yollash.

JAMIYATGA YETISHISH DIAKONI

Bu turdagi diakon mahalliy jamiyatga xizmat qilish faoliyatiga jamoat a‘zolarini jalb etish, istiqbolli xizmat imkoniyatlarini ommaga ma‘lum qilish, oqsoqollarning jamoat a‘zolarini jamiyatdakilarga xushxabar aytishga ruhlantirish ishiga ko‘maklashish.

Vazifalari:

- Oqsoqollar tomonidan tasdiqlangan xushxabchilik faoliyatiga oid jamiyatga yetib borish harakatlari uchun jamoat vositalaridan foydalanishni jamoat shtati bilan muvofiqlashtirish.
- Jamoat a'zolari o'zlarining Iso Masihga shogird bo'lishda rivojlanishlarining belgisi sifatida o'zlari yashab turgan jamiyatlarda nochor va muhtojlikda yashayotgan odamlarga g'amxo'rlik qilishga chorlashda oqsoqollarga ko'maklashish.
- Jamoat a'zolariga o'z atroflaridagi jamiyatning muhtoj a'zolariga g'amxo'rlik qilish va xizmat qilishda ko'proq ishtirok etishlariga amaliy jihatdan yordamlashish.
- O'z atroflaridagi jamiyatning muhtoj a'zolariga g'amxo'rlik va xizmat qilishga maslahat hamda yordam izlayotganlarga birinchi murojaat nuqtasi sifatida xizmat qilish.
- Atrofdagi hududlarda kambag'allarga xizmat qilayotgan har xil xushxabchilik tashkilotlarini ko'rib chiqish, ularni

baholash va ular bilan aloqa o‘rnatish, bunday tashkilotlar bilan ko‘ngillilar xizmatida ishtirok etish ko‘rinishidagi hamkorlikni izlayotgan, jamoatning yakka tartibdagi a‘zolarini ma’lumot bilan ta’minlash va ularga maslahat berish.

JAMOAT A‘ZOSI HAQIDA G‘AMXO‘RLIK QILUVCHI DIAKONI

Bu turdagi diakonning ikki asosiy vazifasi bor: xayr-ehson fondini yuritish va jamoatning yoshi katta a‘zolariga doir xizmatni muvofiqlashtirish. Bunga qo‘shimcha ravishda, ushbu diakondan jamoat a‘zolariga ko‘maklashishni muvofiqlashtirish so‘raladi.

Xayr-ehson fondi jamoat a‘zolari yoki jamiyat a‘zolarining moddiy ehtiyojlarini qodirish yoki boshqa arzirli sabablar uchun ishlatiladi. Fond oqsoqollarning nazorati ostida jamoat a‘zolariga g‘amxo‘rlik qilish diakoni tominidan yuritiladi. Biron bir xarajatni amalga oshirish uchun diakon va oqsoqollardan bittasi xarajat miqdori va maqsadi haqida kelishib olishlari kerak. O‘shandagina jamoat administratori fond hisobidan chek yozib beradi.

Xarajatlar ma'lum bir shartlar va/yoki doimiy maslahatlar bilan birga amalga oshirilishi ham mumkin.

A'zolarga g'amxo'rlik qilish diakonining ikkinchi asosiy javobgarligi bu jamoatning yoshi katta a'zolariga doir xizmatni muvofiqlashtirishdir. Birinchidan, diakon yoshi katta a'zolari yaxshiroq tushunish va ularning muhtojliklarini anglash uchun ular bilan aloqa o'rnatishi kerak. Bunday xizmatga ularni jamoatga olib borish, shifokor ko'rigiga olib borib, olib kelish, hovli-tomorqa ishlariga ko'maklashishni muvofiqlashtirish, ularning uylarida Mavlud bayrami qo'shiqlari kuylanishini tashkillashtirish va boshqa faoliyatlar misol bo'la oladi.

MAROSIMLAR DIAKONI

Marosimlar diakoni barcha cho'mdirilish marosimlari hamda Qutlug' Kechlikni munosib ravishda ijro etishga mas'uldir.

Vazifalari:

- Cho'mdirilish marosimida, diakon hamma narsa silliq va to'g'ri kechayotganiga ishonch hosil qilish uchun cho'mdirilishga aloqador shaxslarga sahna orqasida ko'maklashadi.

- Qutlug' Kechlikda, diakon hamma narsa oldindan tartibga solinganiga, tayyorlanganiga va rejalashtirilganiga ishonch hosil qiladi; Qutlug' Kechlikni tarqatish uchun a'zolari tanlaydi va Kechlikni ijro etilishiga ko'maklashadi.

OVOZ SOZLAMALARI DIAKONI

Ushbu turdagi diakon jamoatning audio loyihalash va ovoz yozish ehtiyojlari uchun mas'ul shaxsdir. Diakon barcha xizmatlardagi ovozlar aniq va tiniq chiqishi va xizmatchilarni o'z ishidan chalg'itmasligini ta'minlashi kerak. U o'zini (1) hamdu-sano aytishdan chalg'itadigan narsalarning oldini olish orqali jamoatga xizmat qilish; (2) yig'ilish yetakchilari va notiqar duch kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklarni kamaytirish yoki oldini olish orqali ularga xizmat qilish; (3) dunyoga yozilgan ovozli Kalomni yetqazish orqali ularga xizmat qilish.

Vazifalari:

- Ko'ngillilarni tayyorlash.
- Ko'ngillilar xizmat jadvalini yuritish va ularga kerakli paytda eslatmalar jo'natish.

- O‘quv va axborot materiallarini tayyorlash va ishga yaroqliligini saqlash.
- Doimiylikni saqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan ko‘ngillilarni qayta tayyorlash.
- Ovoz va ovoz yozish tizimlarini ishga yaroqliligini saqlash, ularni kalibrlash (sozlash) hamda yangilab borish uchun texnik mutaxassislar yoki ko‘ngillilarni boshqarish.
- Ovoz sozlamalari bo‘yicha yangi g‘oyalarga ega bo‘lish uchun boshqa jamoatlar bilan aloqa o‘rnatish.
- Ovoz muvofiqligi uchun metodlar va standartlar ishlab chiqish.
- Ovoz tizimlari ehtiyojlari uchun yillik budjet loyihasini taklif qilish.
- Har hafta yakshanba kungi ertalabki xizmatdan oldin ovoz sifatini tekshirish.

KELUVCHILARNI KUTIB
OLIB O‘RINDIQLARGA
JOYLASHTIRUVCHILAR DIAKONI

Bu turdagi diakon yakshanba kunlaridagi ertalabki va kechqurungi yig‘ilishlar paytida va Henry

Forumlari kabi maxsus bir jamoat uchrashuvlarida keluvchilarni kutib olish va ularni joylashtirish uchun mas'uldir.

Vazifalari:

- Keluvchilarni kutib oluvchilar va joylashtiruvchilarni yollash, xizmat jadvalini tuzish va ularni boshqarish, ular o'z vazifalarini bilishlari va ularni bajarayotganlariga ishonch hosil qilish.
- Ushrlar va yig'implarni boshqarish. Qurbonliklar yig'ilishi, jamlanishi va xavfsizlikda saqlanishini ta'minlash.
- Jamoat oqsoqollari bilan aloqada bo'lish.
- Keluvchilarni kutib olish va joylashtirish ishlarini yaxshilash yo'llarini tavsiya qilish.

Kutib oluvchi va joylashtiruvchilarning vazifalari:

- Jamoat a'zolari va mehmonlarni kutib olish.
- Jamoat a'zolari va mehmonlarni joylashtirish.
- Varaqalarni tarqatish.
- Jamoat o'rindiqlaridan samarali foydalanayotganligiga ishonch hosil qilish.

- Savollarga, ayniqsa, mehmonlarning savollariga javob berish.
- Yordamga muhtoj bo'lganlarga, ayniqsa, keksa yoshdagilarga yordam berish.
- Ushr va qurbonliklarni yig'ish jarayonida hisobdorlikni ta'minlash.
- Ibodat va Kalom o'qish paytida o'tirish va halal berishlarni oldini olish orqali Xudoga va Uning So'ziga loyiq hurmatni ta'minlash.

Kutib oluvchilarning vazifalari:

- A'zolar va mehmonlarni kutib olish (salomlashish).
- Varaqalarni tarqatish.
- Savollarga, ayniqsa, mehmonlarning savollariga javob berish.
- Yordamga muhtoj bo'lganlarga, ayniqsa, keksa yoshdagilarga yordam berish.
- Ibodat va Kalom o'qish paytida o'tirish va halal berishlarni oldini olish orqali Xudoga va Uning So'ziga loyiq hurmatni ta'minlash.

MEHMONDORCHILIK DIAKONI

Bu turdagi diakon mehmonlar/a'zolar, imonli-lar/imonsizlar uchun ichimliklar tarqatish va ularga xizmat ko'rsatish orqali munosabat o'rnatish uchun sharoit yaratishga mas'uldir.

Vazifalari:

- Mehmondorchilik xizmati uchun yetakchi-likni rivojlantirish va nazoratni ta'minlash.
- Ushbu xizmatga xizmatchi liderlarni yollash, ularga o'rgatish va ularni qo'llab quvvatlash.
- O'z in'omlarini xizmatda ishlatishga ruhlan-tirish orqali boshqalarning iste'dodlarini rivojlantirishga ko'maklashish.
- Doimiy baholash va rivojlanishni ta'minlash.
- Ushbu xizmatga doir budjetni boshqarish.
- Ushbu xizmatga kerak bo'ladigan mahsulotlar, ashyo-anjomlar va jihozlarni nazorat qilish.
- Oqsoqollar bilan aloqada bo'lish.

Vazifalar quyidagilarga to'g'ridan-to'g'ri mas'uldir:

- Yakshanba kungi ertalabki Vest Hol birodarligi

- Henry Forumi birodarligi
- Tepalikdagi hamdu-sanolar (Mavlud bayramida)
- A'zolar payogi (oziq-ovqat)
- Yangi onalarga ovqatlar
- Bemor odami bor oilalarga ovqatlar
- Dafn marosimi ehtiyojlari
- Yangi a'zolarga tushlik

IZOHLAR

1. Louie D. Newton, *Why I Am a Baptist* (Boston: Beacon Press, 1957), 202.

2. Masalan, Havoriyalar 1:17, 25; 19:22; Rim. 12:7; 1-Kor. 12:5; 16:15; Efes. 4:12; Kol. 4:17; 2-Tim. 1:18; Filem. 13; Ibr. 6:10; 1-But. 4:10–11; Vahiy 2:19.

3. Masalan, Rim. 13:4.

4. Masalan, Matt. 25:44; Havoriyalar 11:29; 12:25; Rim. 15:25, 31; 2-Kor. 8:4, 19–20; 9:1, 12–13; 11:8.

5. Masalan, Matt. 8:15; Mark 1:31; Luqo 4:39; Matt. 27:55; Mark 15:41; Luqo 8:3; Luqo 10:40; Yuhanno 12:2; Rim. 16:1.

6. Masalan, Matt. 4:11; Mark 1:13.

7. Masalan, Matt. 22:13; Luqo 10:40; 17:8; Yuhanno 2:5, 9; 12:2.

8. Masalan, Matt. 20:28; Mark 10:45; Luqo 22:26–27; cp. Yuhanno 13; Luqo 12:37; Rimliklar 15:8.

9. Masalan, Havoriyalar 6:1–7; Havoriyalar 20:24; 1-Kor. 3:5; 2-Kor. 3:3, 6–9; 4:1; 5:18; 6:3–4; 11:23; Efes. 3:7; Kol. 1:23; 1-Tim. 1:12; 2-Tim. 4:11.

10. Havoriyalar 21:19; Rim. 11:13.

11. Masalan, 1-Tim. 4:6; 2-Tim. 4:5.

12. 1-But. 1:12.

13. Ibr. 1:14; 2-Kor. 3:6–9; 11:15; Gal. 2:17.

14. Bu ta'riflarni ko'rishga yordam bergan Cho'pon Buddy Grayga tashakkurlar.

15. Bonhoeffer, *Life Together: The Classic Exploration of Christian in Community* (New York: Harper & Row, 1954), 109.

16. Os Guinness, *Dining with the Devil* (Grand Rapids, MI: Baker, 1983), 49.

17. Masalan, A. T. Robertson, *Life and Letters of John Albert Broadus* (Philadelphia: American Baptist Publication Society, 1902), 34; O. L. Hailey, *The Preaching of J. R. Graves* (1929), 40.

18. 1-Tim. 5:17; Titus 1:8–9; Havoriylar 6:2, 4ga qarang.

19. Timothy Z. Witmer, *The Shepherd Leader: Achieving Effective Shepherding in Your Church* (Phillipsburg, NJ: P&R: 2010); also, Phil Newton and Matt Schmucker, *Elders in the Life of the Church* (Wheaton, IL: Crossway, 2014).

20. Jonatan Liman ushbu masala ustida *Don't Fire Your Church Members: A Case for Congregationalism* (Nashville: B&H Academic, 2016), ch. 5, hamda ommaga tushunarliroq bo'lgan darajada esa *Understanding the Congregation's Authority* (Nashville: B&H, 2016), ch. 6. asarida chuqurroq muhokama qilgan.

21. Edward Griffin, "A Tearful Farewell from a Faithful Pastor" (1809).

22. Yeremiyo 31:34; 1-Kor. 2:10–16; 1-Yuhanno 2:20, 27.23. Leeman, *Understanding the Congregation's Authority*, Kirish.

MUQADDAS KITOBGA IQTIBOSLAR

ZABUR

1 58

19 58

119 58

MATTO

5:16 111

18 97

18:15–17 82

18:17 82

20:26 23

23:11 23

28 99

LUQO

12:35–48 60

YUHANNO

10:16 100

12:26 22

13:34–35 102

13:35 36, 111

14:21 104

15:5 100

HAVORIYLAR

6 24, 35–36

6:1–7 33–34

6:2 74–75

6:2–4 24, 74

6:3. 25, 34

6:4 55, 75

9:4 115

11:30 46

14:23 46

15:2, 4, 6, 22–23 46

16:4 46

20:17 46

20:17, 28 45

20:28 59, 62, 65

21:18 46

YOQUB

5:14 47, 55

1-BUTRUS

2:5 100

2:12 110

4:10 38

5:1 47

5:1–2 45

5:2 59, 67

5:3 68

1-YUHANNO

4:20 103

2-YUHANNO

2-Yuhanno 47

3-YUHANNO

3-Yuhanno 47

RIMLIKLARGA

1:11–12 37

6:3–4 99

15:14 60

16:1 26

1-KORINFLIKLARGA

1:13 114

1:28–29 118

5 83

7:19 115

8:1 116

10:16–17 99

11:23–26 117

12 100

12:4–7, 12 37

12:27 114

13 116

14 38

14:12 37

14:26 38, 116-117

15:17–19 118

16:14 117

2-KORINFLIKLARGA

2:6–8 83

13:5 57

GALATIYALIKLARGA

1:6–9 82

3:28 48

EFESLIKLARGA

4:7–8, 11–13 *123-124*

4:11 *45*

4:11–12 *105-106*

FILIPPILIKLARGA

1:1 *27*

4:15–18 *77*

1 - SALONIKALIKLARGA

5:13 *88*

1-TIMO‘TIYGA

2 *26, 48*

2:12 *48*

3 *48-49, 74*

3:1–7 *49-50*

3:2 *57*

3:8–13 *25*

4:14 *46-47*

5 *47*

5:17 *46-47, 88*

5:17–18 *77*

2-TIMO‘TIYGA

2:2 *69*

4:3 *83-84*

TITUS

1 *48*

1:5 *47*

1:5–9 *49*

1:6 *88*

1:7–9 *67-68*

IBRONIYLARGA

10:24–25 *100*

13:7 *121*

13:17 *60, 85, 90*

VAHIY

2 *77*

3 *77*



WORDSEARCH® BIBLE



WORDsearch® Muqaddas Kitobi – bu LifeWay Christian Resources sho’basi bo’lib, u 1987-yildan beri yuqori sifatli Muqaddas Kitobni o’rganish dasturi bilan ta’minlab, va’z aytish va ta’lim berish orqali insonlarning hayotini o’zgartiradigan xizmatchilarga xizmat qilib kelmoqda. WORDsearch® Xudo Kalomi va’zxonlari, o’qituvchilari va talabalariga minglab Muqaddas Kitoblar va Kalomni tezroq, osonroq va zavqliroq o’rganishga imkon beradigan kitoblarni taklif etadi. Shu bilan bigra, WORDsearch®ni iphone, ipad, va Android telefonlar va planshetlarda ham MyWSB.com ilovasi orqali bepul yuklab olish mumkin.

Jamoatni kim yetaklaydi? Bu Xudo uchun nega muhim?

Xudo O'z ulug'vorligi haqida qayg'uradi va U O'z ulug'vorligini jamoat orqali namoyon etishni xohlaydi. Aynan mana shu maqsadda, Xudo oqsoqollar va diakonlar, jamoat a'zolari hamda jamoat hokimiyatini yo'lga qo'ygan. Jamoat tuzilishi haqidagi ushbu qo'llanma jamoatdagi har xil martabalarni bir-biri bilan hamda Xudoning ulug'vorligi bilan bog'laydi.

Jamoat Asoslari To'plamida ishonchli jamoat mutaxassislari jamoat intizomi, jamoatdagi yetakchilik, Qutlug' Kechlik, cho'mdirilish kabi masalalar bo'yicha amaliy hamda ishonchli manbalar yozishadi. Ularni har qanday cho'pon har qanday jamoat a'zosiga taqdim etishi mumkin.

Mark Dever (Kembrij Universiteti falsafa doktori) Vashingtondagi Kapitoll Hil Baptist Jamoati katta cho'poni va 9Belgilar xizmati rahbaridir. U jamoatga doir ko'plab kitoblar, shu jumladan, "Jamoat: Ko'zga Ko'rinadigan Xushxabar" kitobini yozgan.

Jonatan Liman (Uels Universiteti falsafa doktori) 9Belgilar xizmatida tahririyat direktori sifatida faoliyat ko'rsatadi. U bir necha kitoblar va maqolalar yozgan hamda 9Belgilar Jurnalini va kitoblar to'plamlarini tahrirlaydi. Shu bilan birga, u Kapitoll Hil Baptist Jamoatida oqsoqol bo'lib xizmat qiladi.

